

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida
UDK 4.494.322 o‘zb.-4*

Abdukarimova Nilufar Ikromovna

“SHAYTANAT” ASARI TILINING GENDER XUSUSIYATLARI

5A120102 - Lingvistika (tillar bo‘yicha)

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
M.Qurbonova,
filologiya fanlari doktori, professor

MUNDARIJA

KIRISH 2-4**I BOB. TILSHUNOSLIKDA MATNNING O`RGANILISHI MUAMMOSI**

1.1. Matn o`rganilishi tarixiga doir. 5-7

1.2. Badiiy matn taraqqiyoti. Badiiy matnning o`ziga xos xususiyatlari. 8-12

1.3. Gender tilshunosligining O`zbekistonda rivojlanishi. 13-17

Bob bo`yicha xulosalar. 18-19

II BOB. BADIY MATNNING GENDER TADQIQI MUAMMOLARI

2.1. Insonga xos tashqi ko`rinishni ifodalovchi gender stereotiplarning aks etishi. 20-25

2.2. Murojaat shakllari va mulozamat – manzirat ifodalovchi birliklarning gender xoslanishi.. 26-33

2.3. Qarindoshlik asosidagi shaxs nomlarining gender xususiyatlari..... 34-39

Bob bo`yicha xulosalar.. 40-42

III BOB. T. MALIKNING “SHAYTANAT” ASARIDAGI LEKSIK HAMDA GRAMMATIK VOSITALARNING GENDER TADQIQI

3.1. Asardagi leksik vositalarning gender tadqiqi..... 43-48

3.2. Asardagi morfemik va morfologik vositalarning gender tadqiqi.. 49-53

3.3. Asardagi sintaktik vositalarning gender tadqiqi..... 54-58

Bob bo`yicha xulosalar.. 59-62

UMUMIY XULOSA.. 63-69**ADABIYOTLAR RO`YXATI..... 70-76**

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. “Insoniyat, mamlakatlar va xalqlar hayotida XX asr poyoniga yetmoqda. Bizni - hozirgi O`zbekistonda istiqomat qiluvchilarning ko`pchiligini... chin voqelik muammolari bilan birga: “Bu yorug` olamda biz kimmiz va qayoqqa qarab ketyapmiz? Insoniyat yangi – XXI asrga qadam qo`yganida bizning o`rnimiz qayerda va qanday bo`ladi?” degan savollar o`ylantirishi tabiiy”.<sup>1</sup> Umumjahon xalqlari o`z-o`zining o`rnini qidirayotgan bir davrda Vatanimiz O`zbekistonning har bir yashovchisi o`z nutqi va odobida, o`z muomala madaniyatida o`zbeklarning dunyo xalqlari o`rtasidagi mavqeyining naqadar ustunligini namoyon qilayotgani ma`lumdir.

Shuning uchun ham olimlar inson ruhiyatini uning tili bilan chambarchas bog`liqligini qadimdan isbotlab, nutq madaniyati, shu jumladan, badiiy matn tahlili muammolariga ilmiy asosda qiziqib kelganlar.

Dunyo ilmida badiiy matnning psixolingvistik, germeneytik hamda pragmatik jihatlarini o`rganishga qaratilgan ko`plab tadqiqotlar mavjud. Adabiyotning rivojlanishi matnning taraqqiyotiga ham jidday ta`sir ko`rsatib kelmoqda. Ma`lumki, adabiyotda turli yo`nalishlar mavjud. Bularning barida tilning o`z o`rni, mavqeyi, qolaversa, uslubi bor. Ayni shu ma`noda badiiy matn tilining gender xususiyatlarini kuzatish hozirgi kundagi ijtimoiy voqelikda erkaklar va yoki ayollar mavqeyining rivojini kuzatishimiz mumkin.

O`zbek nasriga o`z asarlari bilan katta hissa qo`shib kelayotgan sevimli adibimiz Tohir Malikning “Shaytanat” qissasida ham biz ayni shu jihatga e`tibor qaratamiz. Tohir Malik asarlari o`zbek adabiyotida yaratilgan adabiy meros orasida o`zining qiziqarliligi, hayotiyiligi, ta`sirchanligi, inson xarakterini va ruhiyatini haqqoniy gavdalantirganligi hamda turmushning murakkab muammolarini qalamga olganligi bilan ajralib turadi. Iste`dodli yozuvchi T.Malik ma`naviyatimiz xazinasiga o`zining o`tkir nutqi, tilimizning boy imkoniyatlarini hamda xalqimizning tilidagi gender xossalarning mahorat bilan tasvirlab bera olgani bilan diqqatga sazovor.

¹ I.A.Karimov. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent; 1997, 3-b.

Badiiy matn asosida gender xususiyatlarni o`rganishga qaratilgan tadqiqotlarning kam ekanligini ta`kidlagan holda magistrlik dissertatsiyasi uchun tanlangan mazkur mavzu o`z dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. T.Malikning “Shaytanat” asarida qo`llangan leksik, morfemik, morfologik hamda sintaktik birliklar hamda badiiy nutq vositalarining gender xoslanganligini o`rganish ishning asosiy maqsadini tashkil qiladi. Mazkur maqsadga erishishi uchun tilshunoslikda matnning o`rganilishi, badiiy matn taraqqiyoti, Tohir Malikning “Shaytanat” asaridagi leksik hamda grammatik vositalarni gender nuqtayi nazardan tadqiq qilishni o`z oldimizga vazifa sifatida belgilaymiz.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Tohir Malikning beshta kitobdan iborat “Shaytanat” asari tadqiqot obyekтини tashkil qiladi. Unda qo`llanilgan leksik hamda grammatik vositalarning gender xususiyatlari dissertatsiyaning predmetini belgilaydi.

Tadqiqot uslubiyati va uslublari. Dissertatsiyaning uslubiyatini belgilashda badiiy asarni tahlil qilishga yo`naltirilgan matn tilshunosligi, germeneytika hamda gender lingvistikasida faoliyat yurituvchi qator yetakchi olimlarning qarashlariga tayanildi. Ishni yoritishda, asosan, analiz, sintez, statistika va qayd qilish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Badiiy matnda, xususan, T.Malikning “Shaytanat” asarida qo`llanilgan gender xoslangan lug`aviy birliklar hamda grammatik vositalarning birinchi marta tahlil etilishi uning ilmiy yangiligini belgilab beradi. Shu bilan birga badiiy matnda qo`llangan turli nutqiy ifodalarning ijtimoiy-lisoniy aspektda gender jihatdan tadqiq etilishi, o`zbeklarning muloqot xulqidagi kompozitsion bosqichlarning badiiy nutq uslubida tahlil qilinishi, muloqot xulqining jins jihatdan xoslanishi badiiy matn materiallari misolida ilmiy yoritilishi, bunday birliklarning muloqotdagi o`rni va ahamiyatini ilmiy asoslashga harakat qilindi.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tatbig`i.** Tadqiqotda chiqarilgan xulosalardan umumta`lim maktablarida, litsey va kollejlarda

universitetning filologiya fakultetlarida “Hozirgi adabiy o`zbek tili”, “Badiiy matn tahlili”, “Matn tilshunosligi”, “Sotsiolingvistika” kabi fanlari bo`yicha o`quv adabiyotlari yaratishda foydalanish mumkin. Shuningdek, mazkur tadqiqotda taqdim etilgan kuzatish va umumlashmalar badiiy matn nutqining gender jihatdan xoslanishi yuzasidan kelajakda olib boriladigan tadqiqotlar samaradorligiga ma`lum darajada ijobiy ta`sir ko`rsatadi, deb umid qilamiz.

Tadqiqotning tuzilishi va tarkibi. Dissertatsiya o`z oldiga qo`ygan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatini o`z ichiga oladi.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari. Shu yilda O`zbek tilshunosligi kafedrasida nashr etilgan “Lingvist” to`plamida “Badiiy matnning gender tadqiqi xususida”, “Gender tilshunosligining O`zbekistonda rivojlanishi” (iqtidorli talabalar to`plami), “Tohir Malikning “Shaytanat” asarida qarindoshlik asosidagi shaxs nomlarining gender xususiyatlari” (Ma`rifat 21 son) mavzularida ilmiy maqolalar e`lon qilindi.

Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashgan ifodasi. O`zbek tili badiiy asar nutqida gender jihatdan o`ziga xos ma`noga ega leksik va grammatik birliklarning qo`llanilishi ancha uzoq tarixga borib taqaladi. Bu kabi asarlarda iste`foda etilgan gender mazmundagi vositalarni ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq qilish, ulardagi xususiy va mushtarak xususiyatlarni aniqlash gender tilshunosligi uchun amaliy va ilmiy ahamiyatga ega.

I BOB. TILSHUNOSLIKDA MATNNING O`RGANILISHI MUAMMOSI

Bugungi kunda jahon tilshunosligida matn va uning lisoniy tabiatini o`rganishga qaratilgan tadqiqotlar XX asr o`rtalaridan amalga oshirila boshladi. Buni biz rus, ingliz, fransuz, nemis tilshunosligi kabi bir necha lingvistik maktablar misolida ko`rishimiz mumkin.

1.1. Matn o`rganilishi tarixiga doir

Matn haqida fikr yuritishdan oldin uning qanday jarayon ekanligini aniqlab olishimiz zarur. Matnning til tizimidagi o`rni haqida tilshunoslikda turli xil qarashlar mavjud. Masalan, matnni nutqiy birlik sifatida talqin qiluvchi olimlar uning belgilar tabiati nimalardan iborat, matnni nutqiy jarayon deb atash lozimmi yoki matnni nutqiy jarayonning natijasi sifatida talqin etish kerakmi, matnni og`zaki nutq bilan yoki yozma nutq bilan bog`lab o`rganish to`g`ri bo`ladimi, degan savollarni kun tartibiga qo`ymoqdalar. Matnnig nutq kategoriyasi ekanligi masalasi psixolingvistikada "nutqiy jarayon" yoki "nutqiy faoliyat natijasi" sifatida izohlanadi.

Matn tuzilishiga ko`ra og`zaki va yozma shakllarda bo`lishi mumkin. Rus tilshunosi I.R. Galperinninig talqiniga ko`ra, matn har tomonlama mukammal holatlarga keltirilgan yozma nutq mahsulidir.

XX asrning 2-yarmida tilshunoslikda yangi yo`nalish – “Matn tilshunosligi” paydo bo`ldi. Bu nisbatan yosh soha bo`lgani uchun ham uning ichki tuzilishida muayyan nazariyalar borasida hozirga qadar bir ilmiy qarorga kelinmagan.

O`tgan asrning 90-yillaridan boshlab o`zbek olimlari matn tilshunosligining nazariy muammolari bilan shug`ullana boshladilar. Bu jihatdan B.O`rinboyev, R.Qo`ng`urov, J.Lapasovlarning "Badiiy tekstning lingvistik tahlili" nomli o`quv qo`llanmasini alohida qayd etishimiz zarur. Bu asarning kirish qismi "Tekst - lingvistik tahlil obyekti " deb nomlanadi. Bunda matn tiplari, ularning umumiy va o`ziga xos belgilari, matnning lisoniy tahlili, metodologik tamoyillari, matn yaratish muammolari ifoda vositalarining tanlanishi va ularning matn tuzilishidagi roli singari dolzarb masalalar o`zbek tilida berilgan misollar orqali yoritilgan.

A.Mamajonovning 1989-yilda nashr qilingan "Tekst lingvistikasi" nomli qo'llanmasida matn nazariyasi va matn tahlili bilan bog'liq masalalarga to'xtalgan.

O'zbek tilshunoslari A.Nurmonov va N.Mahmudovlar "O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi" asarida matn kategoriyasining o'rganilishi, matn sintaksisi xususida nuhum ma'lumotlarni beradi.

M.Yo'ldoshevning doktorlik dissertatsiyasi badiiy matn lingvopoetikasiga bag'ishlangan bo'lib, u mazkur tadqiqot bilan bog'liq bir qancha o'quv qo'llanmalarni nashr qilgan: "Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari" (Toshkent, 2007), "Badiiy matn lingvopoetikasi" (Toshkent, 2008), "Badiiy matnning lisoniy tahlili" (Toshkent, 2010). Olimning asarlarida matnning nazariy masalalari, uning maqomi, birliklari, matn turlari, matn tarkibiy qismlari, matn tarkibiy qismini bog'lovchi vositalar, badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari (shakl va mazmun birligi tamoyili; makon va zamon birligi tamoyili; xususiylikdan umumiylikka o'tish tamoyili), badiiy matnni tahlil qilish usullari (lisoniy tabdil usuli; matn variantlarini qiyoslash usuli; lug'atlarga asoslanish usuli; lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli), badiiy matnning lingvistik tahlili (badiiy matnning fonetik-fonologik xususiyatlari, badiiy matnning leksik-semantik xususiyatlari, badiiy matnning morfologik xususiyatlari, badiiy matnning sintaktik xususiyatlari), badiiy matnda ko'chimlar kabi masalalar haqida ma'lumot beradi.

O'zbek tilshunosligida matn muammolari tadqiqida yana bir salmoqli ish S.Boymirzayevaning "O'zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasidir. Mazkur tadqiqot ham o'zbek lingvistikasida matn tilshunosligi yo'nalishining rivojiga zalvorli hissa qo'shdi.

Hozirgi paytga kelib, o'zbek tilshunosligida matn muammolarini tadqiq etishda salmoqli yutuqlarga erishildi hamda lingvistikada "Matn tilshunosligi" yo'nalishining mavqeyi yanada mustahkamlandi.

1.2. Badiiy matn taraqqiyoti. Badiiy matnning o'ziga xos xususiyatlari

Matn maqsad-mohiyatida tilning ikki muhim vazifalaridan biri: kommunikativ vazifa yoki estetik vazifaning qay biri yetakchilik qilishiga ko'ra matnning ikki oppozitiv tipi farqlanadi, ya'ni, badiiy matn va nobadiiy matn. Asosiy maqsad-mohiyatida estetik vazifa yetakchilik qilgan matnni badiiy matn deyishimiz mumkin.

Badiiy matnning yaratilishi asosini badiiy uslub unsurlari tashkil etadi. Badiiy uslub o'zbek tili vazifaviy uslublari orasida o'ziga xos mavqega ega bo'lib, ayni paytda o'zining alohida me'yorlariga ham ega. Til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo'lgan barcha lingvistik birliklarning, boshqa vazifaviy uslublarga xos bo'lgan elementlarning ham ishlatilaverilishi va ularning muhim bir vazifaga badiiy-estetik vazifani bajarishga xizmat qilishi badiiy uslubning asosiy xususiyati sanaladi. Shuningdek, badiiy uslubda, xususan, poetik nutqda hozirgi adabiy orfografik me'yor talablariga muvofiq kelmaydigan qator so'zlar ham ishlatilaveradi. Bu uslubda metafora, metonimiya, sinekdoxa, mubolag'a singari badiiy vositalardan keng foydalaniladi.

O'zbek tilshunosligida badiiy matn tadqiqi sohasida jiddiy izlanish olib borgan M.Yo'ldoshev badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari haqida quyidagi fikrlarni ilgari suradi:

1. Shakl va mazmun birligi tamoyili.
2. Makon va zamon birligi tamoyili.
3. Badiiy matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash tamoyili.
4. Badiiy matndagi poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlash tamoyillari.
5. Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarini aniqlash tamoyili.²

1. Shakl va mazmun birligi tamoyili. Borliqdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlik, bog'lanish turlaridan biri shakl va mazmun birligidir. Shakl va mazmun munosabati tushunchasi har qanday matn uchun zaruriy omil hisoblanadi. Faylasuflar mazmunga «muayyan narsa va hodisalarni tavsiflovchi ichki elementlar va o'zgarishlarning majmuyi» deb baho beradilar. Shaklni esa

² Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi –Toshkent, Fan, 2008.

«mazmunni ifodalash usuli, tashkil etuvchisi» sifatida talqin qiladilar. Shakl va mazmun bir-biri bilan shunday bogʻlanib ketganki, birida sezilgan nuqson ikkinchisidagi butunlikka putur yetkazishi mumkin. Shakl va mazmun muvoffiqligi buzilsa, muallifning niyati toʻla namoyon boʻlmay qolishi turgan gap. Bunda asosiy eʼtiborni matn va uning janr xususiyati oʻrtasidagi muvozanatga qaratgan holda, matndagi lisoniy birliklarning tabiatiga mosligi masalasini ham diqqat markazidan qochirmaslik kerak.

Badiiy matn ham shaklan, ham mazmunan mutlaqo oʻziga xos boʻlgan murakkab va serqatlam estetik butunlikdir. Unda mazmun qanchalik muhim boʻlsa, shakl ham shunchalik favqulodda ahamiyatlidir. Baʼzan shakl, hatto, mazmun darajasiga koʻtarilishi, mazmun maqomini olib, haqiqiy mazmunning qimmatiga daxl qilishi ham mumkin. Badiiy matnda muallifning mazmunni shaklga solishdagi mahorati, bundagi individual xususiyatlar alohida qimmatga ega. Badiiy matnda, eng avvalo, ana shu jihat, yaʼni, shakl va mazmun birligi birlamchi tamoyil sifatida nazarda tutilishi lozim. Shakl va mazmunning ochiq yoki yashirin muvofiqligi muallif badiiy niyatining aniq va toʻla namoyon boʻlishi uchun jiddiy zamindir.

2. Makon va zamon birligi tamoyili. Badiiy matnning til xususiyatlari tekshirilayotganida undagi har bir hodisaga makon va zamon birligi tushunchasini hisobga olib yondashish kerak. Har qanday asar davr va makon bilan bogʻliq holda yuzaga keladi. Tarixiy mavzudagi asar tilida muayyan zamon ruhini tashuvchi voqealarning qaysi makonda, qanday muhitda yuz berayotganini oydinlashtiruvchi leksik-grammatik birliklar ishtirok etadi. Makon va zamon birligi tushunchasi badiiy asargagina xos belgi emas. U har qanday matn koʻrinishiga taalluqlidir. Ushbu tamoyil asosida tahlil olib borilayotganda matn yozilgan davr, matnda koʻtarilgan mavzu va matn birliklarining tabiatiga qarab diaxron va sinxron aspektlardan biri tanlanishi kerak.

3. Badiiy matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash tamoyili. Tahlil etilayotgan matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini nazarda tutish ham yana bir tamoyildir.

V.V.Vinogradov "Badiiy adabiyot tili haqida" (1959) nomli asarida ta'kidlaganidek, badiiy adabiyot tilining tarixiy harakatini umumxalq tili hamda uning turli tarmoqlanishi tarixidan tamoman ajratilgan holda o'rganish mumkin emas. Badiiy matnning ikki turini farqlash mumkin: 1) zamonaviy matn (bugun yaratilgan), 2) tarixiy matn (o'tmishda yaratilgan). Zamonaviy matnning ham o'z navbatida ikki turini kuzatish mumkin, ya'ni: a) bugungi kun mavzusidagi zamonaviy matn; b) tarixiy mavzudagi zamonaviy matn. Masalan, S.Ahmadning "Azroil o'tgan yo'llarda" hikoyasi bugungi kun mavzusidagi zamonaviy matn, M.Alining "Ulug' saltanat" romani tarixiy mavzudagi zamonaviy matn, Navoiyning "Farhod va Shirin" asari esa tarixiy matndir.

4. Badiiy matnda poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlash tamoyili. Badiiy asardagi poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlash ham muhim tamoyillardandir. Bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanishi mexanizmlarini aniq tasavvur qilish mumkin.

5. Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash tamoyili. Matn ichida qo'llanilgan o'zga matn ko'rinishlarini (nazira, taqlid, naql, hadis, rivoyat, miflar, afsonalar, didaktemalar, u yoki bu ijodkorning asari yoki parchasi kabi) aniqlash va ularning asar mazmuni bilan qay darajada uyg'unligi, badiiy mazmun ifodasidagi o'rni, asosiy matn bilan lisoniy va semantik bog'lanishidagi muhim holatlar haqida fikr yuritish badiiy matn lingvopoetikasini ochishda favqulodda zarurdir.

Badiiy matnni tahlil qilish usullari. O'zbek tilshunosligida badiiy matn tadqiqi sohasida jiddiy izlanish olib borgan M.Yoldoshev badiiy matnni tahlil qilish usullari sifatida quyidagilarni sanaydi:

1. Lisoniy tabdil usuli.
2. Matn variantlarini qiyoslash usuli.
3. Lug'atlarga asoslanish usuli.

4. Lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli.³

1. Lisoniy tabdil usuli. Tabdil - «almashtirish, o'zgartirish, o'rin almashtirish» degan ma'noni bildiradi. Ayrim adabiyotlarda o'zakdosh so'zlarning juft holda qo'llanishiga nisbatan ham ishlatilishi mumkin. Asar tilining badiiyligi, ishonarliligi, yozuvchining mualliflik mahoratini aniqlashda ushbu tahlil usuli natijalaridan foydalaniladi. Asarda qo'llanilgan so'z yoki iboralarni, jummalarni qayta tuzib ko'rish, o'xshashi bilan almashtirib ko'rish va shu asosda baho berish nazarda tutiladi.

2. Matn variantlarini qiyoslash usuli. Bu usul orqali ma'lum asar matni boshqa variantlari bilan qiyoslanadi va lisoniy farqlarning mohiyati adib nuqtayi nazari, badiiy-estetik niyati hamda asar g'oyasiga bog'lab yoritiladi. Yozuvchining badiiy asar tili ustida ishlashini o'rganishda, yozuvchi tuzatishlarini ayni bir mazmunni ifodalashga qaratilgan turli vositalarni aniqlashda va, umuman, yozuvchining tildan foydalanishdagi mahoratini belgilashda bu usul yaxshi samara beradi.

3. Matn variantlarini qiyoslash usuli. Asar tili, ayniqsa, tarixiy mavzudagi asar yoki tarjima asarlarining til xususiyatlari tekshirilayotgan paytda tegishli lug'atlarga murojaat qilish lozim bo'ladi. Masalan, «Shayboniyxon» dostoni tilida qo'llanilgan gudar, savash, sovut, sodoq, g'ul, tuv, baydoq kabi o'sha davr ruhiyatiga mos harbiy atamalar ma'nosini bilish asarni puxta o'rganishga yordam beradi.

J.Lapasovning «Badiiy matn va lisoniy tahlil» deb nomlangan qo'llanmasida muayyan bir badiiy matnning lug'atini tuzish bo'yicha namunalar hamda lug'at ustida ishlash bo'yicha muhim ko'rsatmalar berilgan. Olim to'g'ri ta'kidlaganidek: «Badiiy matnning lisoniy tahlilini turli-tuman lug'atlarsiz tasavvur qilish qiyin. Lug'at ustida ishlash o'quvchi va talabalarning so'z boyligini, og'zaki va yozma nutqini o'stirishning eng muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi va shu lug'at yordamida nafaqat so'zlarning tub ma'nosini, balki ko'chma ma'nolari, har bir

³ Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi –Toshkent, Fan, 2008.

soʻzning qaysi til unsuri ekanligi, etimologiyasi (soʻzning kelib chiqish tarixi va tadrijiy rivoji), tarkibi, baʼzan esa grammatik shakli bilan yaqindan tanishiladi».⁴

4. Lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli. Badiiy matnning lingvopoetik tahlili jarayonida asardagi lisoniy birliklarning indeksini tuzib chiqish talab qilinadi. Buning uchun dastlab, asardagi eng koʻp qoʻllanilgan, asar badiiyati uchun xarakterli boʻlgan birliklar (masalan, iboralar, sinonimlar, antonimlar yoki epitetli birikmalar, metonimiya, metaforalar boʻlishi mumkin) aniqlanadi. Keyin alifbo tartibida terib chiqiladi. Bu yozuvchining lisoniy mahoratini yoritishda faktik material vazifasini oʻtaydi.

⁴ J.Lapasov. Badiiy matn va lisoniy tahlil. Toshkent, 2006. 34-b.

1.3. Badiiy matnning gender tadqiqi xususida

Ilmiy tafakkur taraqqiyoti har qanday fan sohasidagi nazariy qarashlar o'zgarishiga, tadqiqotning yangi metodlari yaratilishiga va ushbu metodlar tadbqiqida yangi nazariy g'oyalarga tayanish asosida tamoman o'zga amaliy natijalarga erishilishiga sabab bo'ladi. Ilmiy jarayondagi bunday o'zgarishlarga bosqich tahlili, nazariy xulosalarning uzluksiz tadqiqot jarayonida shakllanishi va tuzumli joriy qilinishi natijasida yuzaga keladi¹.

Til doimo inson hayoti, uning ijtimoiy faoliyati bilan bog'liqdir. Lisoniy belgining qanday ijtimoiy vazifa o'tashi, undan qanday foydalanishni bilishi uchun insonning qaysi ijtimoiy tuzumda yashashini ham e'tiborga olish bugungi kun tilshunosligining asosiy vazifalaridandir. Bugungi kunning yangi paradigmasi bo'lgan gendero lingvistika o'zi bilan bir qator o'rganish obyektlarni olib kirdi. Badiiy asarni genderolingvistik jihatdan tahlil qilish, undagi obrazlarning gender xususiyatlarini o'ziga hos murakkablikini yuzaga chiqaradi.

Genderologiyaning umumlingvistik mohiyatini belgilash uchun, avvalo, uning boshqa turdosh, chegaradosh sohalar bilan munosabatini, uzviy aloqadorligini tahminlovchi jihatlarni, shuningdek, individual o'ziga xosliklarni aks ettiruvchi belgi xususiyatlarini aniqlash lozim.

Dastlabki genderolingvistik tadqiqotlarda til vositalaridan foydalanishning gender xususiyatlariga ko'proq e'tibor qaratilib, gender parametrlarining tilshunoslikdagi o'rnini o'rganishga jiddiy ahamiyat berilmas edi. Hozirgi kunda esa tilshunoslikda gender tadqiqotlarni amalga oshirishga qiziqish kuchayib bormoqda, shuningdek, tilning jamiyatdagi o'rnini haqidagi g'oyalar ham tubdan o'zgardi.

Gender hodisalarining nutqiy muloqot va lisoniy faoliyatda voqelanish jarayoni boshqacha mazmun va mohiyatga ega bo'lgan lisoniy hodisalar bilan mushtarakdir. Ma'lumki, so'zlovchi, qaysi jins yoki toifa vakili bo'lishidan qat'i nazar, hamma uchun yagona bo'lgan lisoniy tizimdan foydalanadi. Ammo, ta'kidlash o'rinliki, har bir shaxsning nutqiy yoki lisoniy qobiliyati va imkoniyat darajasi turlicha bo'lishi aniq.

Badiiy matnni, umuman, til birliklarini gendero lingvistik tadqiq qilish bugungi kun tilshunosligining muhim vazifalaridan biridir. Til va gender

¹ Safarov Sh. Pragmalingvistika. 2008.

parametrlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tadqiq etish masalasi g'arb va rus tilshunosligida ancha keng va atroflicha o'rganilgan, bu borada qator tadqiqotlar olib borilgan va hozir ham davom etmoqda... O'zbek tilshunosligida ham bu muammo qo'yildi. Ko'pchilik mutaxassislarning e'tiborini tortmoqda shular jumlasidan: M. Qurbonova, S. Boymirzaeva, N.Bekmuxamedova va B. Yo'ldoshevlarni misol qilishimiz mumkim. Mazkur soha borasida muntazam ravishda xalqaro konferensiyalar ham o'tkazilgan. M.Qurbonova tadqiqotlarni kuzatib bu sohada ikkita jihatga alohida e'tibor qaratilayotganligini ta'kidlaydi:

1. Ayol va erkaklar ma'lum bir voqeylik yoki uning parchasini tasvirlashda, yoki boshqa holatlarda fikrlarni o'ziga hos tarzda bayon etishi (nutqning gender xususiyati);

2. Muayyan til tizimida ayollik va erkaklik belgilari bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi lingvistik vositalarning mavjudligi (til tizimida ayol va erkaklarni bir-biridan ajratish, farqlashg xizmat qiluvchi til birliklarini belgilash)ga katta e'tibor qaratilgan va tahlil qilingan².

Ayol va erkaklarning nutqiy hulqini o'rganish Rossiya va Yevropa tilshunosligida sezilarli darajada ko'zga tashlana boshlandi.

Jahon tilshunosligida gender muammosi turli aspektlarda o'rganiladi .

Gender – umumiy mazmuniga ko'ra erkak va ayollar o'rtasidagi farq. Ikkala jins vakillari nutqiy hulqini jahon tilshunosligida nemis olimi Joul Oates o'zining “ ayol, erkak va til” asarida ham ayol va erkaklarning nutqidagi o'zaro farqlanuvchi jihatlarni ochib beradi. U ko'proq ayol va erkaklardagi salbiy va ijobiy konatassiyalarni olib, o'zaro qiyoslab gender nuqtai nazardan taxmin qiladi. U ko'proq ayol va erkaklardagi salbiy va ijobiy konatassiyalarni olib, o'zaro qiyoslab gender nuqtai nazardan taxmin qiladi.

Erkaklar o'rtasidagi o'zaro nutq siyosiy mavzular, dunyoda bo'layotgan yangiliklar, sport va mashinalar haqida kechadi. Shuningdek, nutqlarida ko'proq bosiqlik , vazminlik va ular ruhiyatida boshqaruvchilik aks etib turadi. Ayollar nutqida ko'proq nolish, xasrat qilish uy-ro'zg'or, oila kabi mavzular uchraydi. Ayollar o'z xursandchiligini bazan yuqori darajadagi emotsiya va turli noverbal hodisalar (qichqirib yuborish , qarsak chalish kabi holatlar. Bunday holatlar asosan, qizlarda uchraydi) orqali namoyon etsa, erkaklar o'z quvonchini bosiqlik bilan ifodalaydi. Ammo shaxsning salbiy hislati bo'lmish jahl qilish, g'azablanish ayollarga nisbatan erkaklarda kuchliroq nomoyon bo'ladi. Ayollar jahli chiqqanini sukut saqlash, jim turish bilan ifodalasa, erkaklar

² Qurbonova M., O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. 2011.

ko'pincha o'z g'azabini baqirish, so'kish va boshqa naverbal hodisalar orqali nomoyon etadi.

Ayollar va erkaklar nutqining o'ziga xos jihati qarg'ish va so'kishlarni yosh jihatdan taqqoslaganda ayollar nutqidagi qarg'ishlar 40 yoshdan oshgan ayollar o'rtasida ko'proq uchraydi.

Albatta, erkaklar nutqiga bosiqlik, vazminlik, ayollar nutqiga esa nolish, xasrat qilish kabi holatlar mos deya keskin fikr bildirish nisbiydir. Shuningdek, bunday holatlarni farqlashda, yuqorida aytib o'tganimizdek, shaxsning ijtimoiy holatini ham inobatga olmoq zarur. Masalan, o'qimishli, ziyoli o'qituvchi ayolning suhbatini bilan oddiy uy bekasining nutqida farq bo'ladi.

Gender tadqiqotlari lisoniy faoliyat subyektini ijtimoiy biologik maqomga ega bo'lgan shaxs sifatida ta'riflash maqsadini navzarda tutib, u sotsiologiyistikaning ajralmas qismidir deya munosabat bildirish mumkin.

Sotsiologlarning fikricha, gender ijtimoiy nuqtai nazardan jamiyatning erkaklarga va ayollarga ijtimoiy bo'linishga tegishli hollarda qo'llanishi mumkin. Ijtimoiy omillar toifa, yosh, irq va kelib chiqishi alohida gender mazmunini ifodasi va tajribasini tashkil etadi. Atamashunoslik nuqtaiy nazaridan gender tushunchasi feminizmning nazariy rivojlanishi jarayonida, bevosita gender tadqiqotlari jarayonida shakllandi. Gender tadqiqotlari dunyodagi eng yosh va istiqbolli ilmiy yo'nalishlardan biridir. U huquq, oilaviy munosabatlar, sog'liqni saqlash, adabiyot, madaniyat va hokazo sohalarni qamrab oladi.

Gender atamasi – har qanday jamiyatda erkak va ayol jinsiga xos bo'lgan shaxsga nisbatan anglashiladigan xatti harakatlar va nuqtai nazarlar birligidir.

Gender yo'nalishi markazida ham inson va uning nutqini tadqiq etish muhim obyektlardan hisoblanadi.

Gender tilshunosligi biror jinsga mansub shaxsning ijtimoiy jarayonlarda yoki hayotning boshqa jabhalarida bajaradigan ro'li bilan bog'liq muommolarni o'rganadi.

Gender yondoshuv erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik yoki jismoniy farqlarga emas, balki maskur jamiyat tomonidan belgilangan madaniy va ijtimoiy ahamiyatga asoslanadi. Ijtimoiy munosabatlarni gender tahlilida gender nomunofiqlik aniqlanadi.

“Gender” tushunchasining mazmuni avvalo jinsni ijtimoiy modellashtirish yoki tashkil etishda mujassamlashgan ijtimoiy jins, ijtimoiy amaliyot yordamida tashkil qilinadi. Gender ijtimoiy jinsning madaniy niqobi, bizning o'z ijtimoiy madaniy tasavvurlarimiz doirasidagi jins haqidagi qarashlarimizdir.

Genderni belgilashga nisbatan mavjud yondoshuvlar va nuqtai nazarning xilma- xilligiga qaramay ikkita konsepsiyani ajratib ko'rsatish mumkin. Genderning ijtimoiy tuzulish nazariyasi va gender tuzumi nazariyasi.

“Tilshunoslikda gender parametrlarining qo'llanilishini tadqiq etish tilshunoslikning ayol yoki erkaklarga xos konstruktiv tamoyillarini o'rganishda ham muhim ekanligi o'z isbotini topdi. Lingvistikada genderologik tadqiqotlardan ko'zlanadigan asosiy maqsad ayollar va erkaklar nutqiga xos bo'lgan, shuningdek, har ikkala jins vakillariga xos uslubda voqelangan yozma yoki og'zaki matnlarni farqlash ko'rinishidagi “lisoniy asimmetriya” hodisasining turlari va sabablarini aniqlashdir. Og'zaki so'zlashuv nutqidan tortib, yozma matnlargacha turli tarzdagi o'ziga xosliklar mavjuddir. Matnlarning tuzilishi tekshirilganda, ayollar va erkaklar nutqining fonetik, leksik-frazeologik, stilistik va boshqa turdagi farqlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayol yoki erkaklar nutqidagi, ularning lisoniy faoliyatidagi individual xususiyatlarni aniqlash, bu borada samarali tahlil va tadqiq ishlarini olib borish ta'lab etiladi³.

Mutaxassislar haqli ravishda ta'kidlaganidek, istalgan turdagi matn genderologiya nuqtai nazaridan o'rganilganda, muallif tomonidan amalga oshiriladigan til birliklari tanlovining sotsial, etnomadaniyat sabablarini aniqlashga imkoniyat yaratiladi”.

O'zbek tilida faqatgina ayollarga xos bo'lgan so'zlashuvning gender xususiyatlari, ayrim xorijiy tillarda ikkala jins vakillariga ham xos bo'lishi mumkin. Bu fikrni dalillash kelgusida o'zbek tilining gender xususiyatlarini o'rganuvchi tadqiqotchilar zimmasiga tushadi. Tilshunoslikda gender xususiyatlarning o'rganilishida qiyosiy tahlil usullaridan unumli foydalanish kutilgan natijalarni berishi shubhasiz.

³ Qurbonova M., Boymirzaeva S. O'zbek tilshunosligi mamlakatimiz innavatsion taraqqiyoti ko'zgusida. 2011.

1.4. Gender tilshunosligining O'zbekistonda rivojlanishi

“Gender” atamasi 1968-yilda amerikalik olim Stoller tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Ilmiy adabiyotlarda gender tushunchasining bir necha talqini mavjud. Gender inglizcha so'z bo'lib, jinsga mansublikning ijtimoiy jihatlarini ma'nosini bildiradi. Bu tushuncha erkak va ayol o'rtasida nafaqat biologik farqni, balki jamiyatning jinsiy taqsimotida ijtimoiy va madaniy tavsiflarni to'liq qamrab oladi. Erkak va ayollarga tegishli ijtimoiy bog'liqlik, xulq-atvor va kutilgan natijalarni ifodalaydi. “Gender feministik nazariyaning davomi sifatida vujudga kelgan yondashuvlar, feminizm (fransuzcha “feministe”, lotincha “femina” - ayol) xotin-qizlarni kamsitishlardan xalos etishni targ'ib etuvchi, ular mavqeyini jamiyatdagi ijtimoiy voqealar hosilasi sifatida o'rganuvchi oqimdir.” Demak, inson jinsda nafaqat fiziologik jihatdan farqlanadi, balki uning atrofida bilan muomalasi, nutqi, va, hatto, dunyoqarashida ham jinsdagi o'ziga xos, farqli yoki mushtarak jihatlar namoyon bo'ladi. Ularni ilmiy tadqiq qilish gender tilshunosligining yanada boyishi va rivojlanishiga xizmat qiladi.

XX asrning 90-yillariga kelib dunyo tilshunosligida gender tilshunosligi borasida izlanishlar olib borish qizg'in tus oldi. Ayniqsa, bu borada rus tilshunosligida e'tiborga molik ishlar amalga oshirildi. Shuningdek, Z.Akbarovanning “O'zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi” hamda N.Ahmedovanning “O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi” mavzusidagi nomzodlik ishlarida jins anglatish maydoniga ko'ra murojaat so'zlar guruhining izohi haqida to'xtalib o'tilgan. Sh.Iskandarovanning “O'zbek nutq odatining muloqot shakllari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida ayol va erkaklarga xos ba'zi lingvistik farqlar va “O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o'rganish (shaxs mikromaydoni)” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida jinsiy va fiziologik holat asosida farqlangan shaxs nomlari haqida, shuningdek, olimaning “Ayollar nutqida undov so'zlarning qo'llanishi”, “O'zbek nutq odobini ifodalovchi paralingvistik vositalar” nomli maqolalarida ayollar

nutqiga xos ba'zi lingvistik xususiyatlar haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Jumladan, xotin-qizlarga xos xususiyatlardan biri ular his-hayajonlarining, holatlarining tez yuzaga chiqishidir, bu xususiyat ko'proq nutqiy vositalar bilan ifodalanadi. Ayollar nutqida dialogga moyillik nisbatan ustunroq ekanligi Sh.Iskandarova tadqiqotlarida qayd etilgan. M.Saidxonovning "Noverbal vositalar va o'zbek tilida ularning ifodalanishi" mavzusidagi nomzodlik ishida o'zbek va boshqa millat ayollarining qayg'uni ifodalovchi usullari haqida to'xtalib o'tgan. F.Musayeva esa "O'zbek tilida biologik jinsni ifodalashning leksik-semantik usuli" nomli maqolasida erkak va ayol jinsi ma'nosini ifodalovchi leksemalar haqida ma'lumot beradi.

Ushbu sanab o'tilgan tadqiqotlarda bir tomonlama, ya'ni, asosan ayollar nutqining ba'zi lingvistik xususiyatlari yoritilgan bo'lib, ularda gender atamasi umuman qo'llanilmagan va gender o'rganish obyekti sifatida tadqiq qilinmagan. Shunday bo'lsa ham, ko'rsatilgan tadqiqotlar O'zbekistonda gender tilshunosligining boshlanishiga va rivojlanishidagi ilk izlanishlar natijasi sifatida ahamiyatga molik.

Respublikamizda gender tilshunosligi borasida dastlabki qadamlar qo'yildi. Jumladan, A.Morozova, I.To'xtasinov va G.Ergasheva kabi yosh olimlarning nomzodlik tadqiqotlari bunga yaqqol misoldir. A.Morozova gender masalasiga ispan tili materiallari asosida yondashib, "erkaklik" va "ayollik" konseptlari mazmuni, ularga xos gender stereotiplar tavsifi haqida ilmiy mulohazalar bildiradi. Uning tadqiqoti kognitiv yo'nalishda olib borilgan bo'lishiga qaramay, tadqiqotchi gender tilshunosligiga ham taalluqli fikr-mushohadalar va taxminlarini ilmiy asosda havola qiladi. I.To'xtasinov ingliz va o'zbek tillariga xos badiiy matnda qo'llanuvchi erkak hamda ayollarga xos fiziologik, ya'ni, yuz va tana tuzilishi bilan bog'liq leksik birliklarning gender farqlanishini qiyosiy-tipologik aspektda keng ochib bergan. G.Ergasheva ingliz va o'zbek tilining frazeologik va paremiologik sistemasiga xos erkak va ayol tushunchalarining gender, pragmatik, kognitiv xususiyatlari, gender stereotiplarning o'zbek frazeologiyasidagi tavsifi, o'zbek paremiyalarining gender tahlili, ularning ingliz tilidagi ifodalari bilan

o'xshash yoki noo'xshash jihatlari haqida fikr yuritadi. Jumladan, "Gender munosabatlarini o'rganish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan, chunki gender muammosi ma'naviyatni yuksaltirish, o'zlikni anglash, inson haq-huquqlarini poymol etmaslik kabi masalalarni ifodalaydi" – deya gender tilshunosligining aynan bugungu kundagi rivoji nechog'li ahamiyatli ekanligi ta'kidlanadi.

Gender lingvistikasiga jiddiy e'tibor f.f.d., prof. M. Qurbonovanning tadqiqotlarida ham kuzatiladi. 2011-yilda chop etilgan "O'zbek tilshunosligi. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyoti ko'zgusida" nomli ilmiy maqolalar to'plamida S.Boymirzayeva bilan hamkorlikda "Tilshunoslikda gender tadqiqotlar" hamda "O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari" respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari ilmiy to'plamida N.Rajabova bilan hammualliflikda "Diskursning gender xususiyatlari" nomli ilmiy maqolalari o'rin olgan. Bu kichik tadqiqotlarda tilshunoslikda gender yo'nalishning tadrijiy taraqqiyot yo'li, shu yo'nalishning paydo bo'lishiga turtki bo'lgan g'oyalar va ilmiy xulosalar, sotsiologiya, psixologiya va boshqa fanlarning tilshunoslik bilan umumiy tahlil usullarining paydo bo'lishi va ularning yangi yo'nalishlarga asos bo'lib xizmat qilishi haqida fikr yuritilgan. Ayniqsa, "Tilshunoslikda gender tadqiqotlar" maqolasida M.Qurbonova til va gender munosabati, jahon ilmiy maydonida gender atamasining ma'nolari, g'arb va rus tilshunoslarining bu yo'nalishdagi muhim ishlarini sanash bilan birga genderologiyaning umumlingvistik mohiyatini aniqlashga harakat qiladi. Dastlabki genderolingvistik tadqiqotlarda til vositalarining gender xossalari ko'proq e'tibor berilgan bo'lsa, hozirgi kundagi gender tadqiqotlarda erkak va ayollarga xos bo'lgan "lingvistik assimmetriya"ni aniqlash va uning ijtimoiy jins tushunchasi bilan munosabatini belgilashga qaratilgani haqli ravishda bayon etilgan. Har ikkala maqolada ham muallif gender tilshunosligining milliy xususiyatlari mavjudligini ta'kidlaydi.

Shu bilan birga gender tilshunoslik tadqiqiga bag'ishlangan bir qator ilmiy maqolalar tadrijini ham kuzatishimiz mumkin. Masalan, "O'zMU yosh tadqiqotchilari ilmiy ishlari" (Toshkent, 2004) to'plamida nashr qilingan

M.Qurbonovanning “Grammatik jins va biologik jins tushunchalari talqini xususida” maqolasida J.S.Nesfieldning “Jins otlarning ma’nolariga ko’ra farqlanadi. Erkaklik jinsidagi (мужской род)dagi otlarga so’zlar ma’lum darajada kuch, vahshat kabi ma’nolarni, ayollik jinsini ifoda etuvchi so’zlar muloyimlik, nafislik, g’amxo’rlik kabi ma’nolarni anglatishi kerak”⁵ degan fikri iqtibos sifatida o’rinli keltiriladi. Maqolada muallif grammatik (formal) va biologik (real) jins tushunchalarini bir-biridan farqlash zarurligi, ular tilda so’zlarning mazmuniy hamda shakliy jihatlariga bog’liqligini misollar yordamida izohlashga harakat qiladi. Ayni shu ilmiy to’plamda jurnalistika fakulteti magistranti Z.Tadjiyevaning “Гендерная проблематика в прессе” maqolasi ham o’rin olgan. Magistrant o’z kichik tadqiqotida bugungi kun matbuotida erkaklarga qaratilgan maxsus nashrlar va ayollarni qiziqtiruvchi alohida gazeta va jurnallar, maxsus u yoki bu jins vakillari e’tiborini tortuvchi rubrikalar, ommaviy axborot vositalarida qo’llanilayotgan so’zlarning gender jihatdan xoslanganligini “Xalq so’zi”, “Правда Востока” hamda “Oila va jamiyat” gazetalari misolida o’rganib, o’z mulohazalarini bayon qiladi.

O’zbekiston davlat jahon tillari universitetida 2011-yilda “Jahon adabiyoti” fanini o’qitishning dolzarb muammolari” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to’plamiga kiritilgan N.M.Yuldashovanning “Гендерные аспекты при изучении зарубежной литературы” va Sh.R.Sultonovanning “Badiiy asarlarda ayollar nutqining ta’sirchanligini ifodalash vositalari” nomli maqolalarida ham gender xususiyatlar o’zbek tili materiallari misolida tadqiq qilinadi.

Lingvistikada gender masalalarga e’tiborning kengayib borishini biz 2013-yilda chop etilgan “Tilshunoslikning dolzarb masalalari” (ilmiy maqolalar to’plami, VI kitob) to’plamida yaqqol ko’rishimiz mumkin. Mazkur to’plamda gender masalalariga alohida “Genderologiya” bo’limi ajratilgan bo’lib, unda N.Bekmuhamedovanning “Tanishuv e’lonlarida uchraydigan xulq stereotiplarining gender aspekti xususida”, B.Yo’ldoshev va K.Rajabovalar hammuallifligida yozilgan “Shaxs tavsifi uchun qo’llanuvchi zoonimlarning gender xususiyatlariga

⁵ Nesfield J.C.English Grammar. London. 1916. P.15.

doir”, M.Isayevaning “Badiiy dialogik nutqda qoʻllanuvchi baʼzi vulgarizmlarning gender xususiyatlari haqida” deb nomlangan maqolalari oʻrin olgan.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, oʻzbek tilshunosligida maʼlum darajada gender lingvistikasi sohasida izlanishlar olib borilmoqda. Tadqiqotlarning asosan qiyosiy planda ekanligi, genderning faqat oʻzbek tiliga xos ogʻzaki va yozma shakli alohida oʻrganilishi va tahlil qilinishi galdagi vazifa sifatida bugungi tilshnoslar oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Bob bo'yicha xulosalar

Biz mazkur “Tilshunoslikda matnning o'rganilishi muammosi” deb nomlangan I bob bo'yicha fikrlarimizni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga keldik:

1. Bugungi kunda jahon tilshunosligida matn va uning lisoniy tabiatini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar XX asr oxirlaridan amalga oshirila boshlandi. XX asrning 2-yarmida tilshunoslikda yangi yo'nalish – “Matn tilshunosligi” paydo bo'ldi.

2. Hozirgi paytga kelib, o'zbek tilshunosligida matn muammolarini tadqiq etishda salmoqli yutuqlarga erishildi hamda lingvistikada “Matn tilshunosligi” yo'nalishining mavqeyi yanada mustahkamlandi.

3. Badiiy matn ham shaklan, ham mazmunan mutlaqo o'ziga xos bo'lgan murakkab va serqatlam estetik butunlikdir.

4. Badiiy matnning til xususiyatlari tekshirilayotganida undagi har bir hodisaga makon va zamon birligi tushunchasini hisobga olib yondashish kerak.

5. Gender tushunchasi erkak va ayol o'rtasida nafaqat biologik farqni, balki jamiyatning jinsiy taqsimotida ijtimoiy va madaniy tavsiflarni to'liq qamrab oladi. Erkak va ayollarga tegishli ijtimoiy bog'liqlik, xulq-atvor va o'ziga xos stereotiplarda ifodalanadi.

6. Inson jinsda nafaqat fiziologik jihatdan farqlanadi, balki uning atrofida gilar bilan muomalasi, nutqi, va, hatto, dunyoqarashida ham jinsdagi o'ziga xos, farqli yoki mushtarak jihatlar namoyon bo'ladi. Ularni ilmiy tadqiq qilish gender tilshunosligining yanada boyishi va rivojlanishiga xizmat qiladi.

7. XX asrning 90-yillariga kelib dunyo tilshunosligida gender tilshunosligi borasida izlanishlar olib borish qizg'in tus oldi.

8. Asrimizning boshlaridan O`zbekistonda gender tilshunosligining alohida ilmiy soha sifatida shakllanishi va rivojlanishi ahamiyatga molik.

II BOB. BADIY MATNNING GENDER TADQIQI MUAMMOLARI

2.1. Insonga xos tashqi ko`rinishni ifodalovchi gender stereotiplarning aks etishi

XX asr ilm-fanga kirib kelayotgan gender tadqiqotlarda ikki jinsning o`ziga xos va mushtarak tomonlari tadqiqi turli sohalar, jumladan, iqtisodiyot, huquqshunoslik, pedagogika, sotsiologiya hamda tilshunoslik kabi fanning azaliy tarmoqlari negizida yangi bir yo`nalish sifatida rivojlanmoqda. Gender tilshunosligining asosiy tushunchalaridan biri gender stereotiplari atamasi hisoblanadi. Gender stereotiplari – bu ayol yoki erkakka xos barcha xususiyatlar tizimidir. O`zbek tiliga xos bo`lgan bunday qoliplar yoki klishelarni badiiy asarlar matnini, xususan, “Shaytanat” qissasi misolida o`rganib, ikki asosiy turga ajratib tahlil qilishni maqsadga muvoffiq deb topdik:

1. Tashqi ko`rinish bilan bog`liq gender stereotiplari;
2. Xarakter xususiyati bilan bog`liq gender stereotiplari.

Asarda insonni tashqi ko`rinishi orqali jinsda farqlovchi bir qator nutqiy birliklar, formulalar mavjud bo`lishi mumkin. Muhim ahamiyatga ega bo`lgan gender stereotiplar tizimiga qahramonning nutqi, ismi, laqabi yoki shaxsini ifodalovchi belgilar kiradi. Ammo matnni o`rganayotganda bevosita ismini o`qimasdan yoki bilmasdan ham qahramonning ayol yoki erkak ekanligini anglatuvchi tashqi belgilar mavjud. Bunday tashqi belgilarga yuz tuzilishi, ifodasi, qad-qomat, tanna a`zolari tuzilishi, ovoz va kiyim-kechak, shuningdek boshqa omillarni kiritish mumkin. Asarda uchraydigan gender stereotiplarni ikki turga ajratib ko`rib chiqamiz:

1. Erkaklarga xos gender stereotiplar.
2. Ayollarga xos gender stereotiplar.

Erkaklarga xos tashqi ko`rinishni aks ettiruvchi gender stereotiplarga quyidagilar kiradi:

- a) yuz a'zolari qismi ifodasi;
- b) tana a'zolari qismi ifodasi;
- c) xarakter ifodasi;
- d) xatti-harakat ifodasi.

Erkaklarning yuz a'zolari qismi ifodasini aks ettiruvchi gender stereotiplariga quyidagilar kiradi: *burgut ko'z, qirg'iy ko'z, lochin ko'z, o'tkir nigohli, burni katta, burgut burun, yuzi yalpoq, tirtiq, yonoqlari bo'rtib chiqqan, labi do'rdaygan, qoshlari qalin, jingalak sochli*, kabi. Masalan, *Bu qoraqosh yigit ko'zlarini sal suzib qarasa, uncha-muncha ayol zoti dosh berolmay qolardi* (I kitob, 17-b.); *Burni biroz puchuq, yuzi dumaloqdan kelgan, qalin qora qoshli odam xunuk ko'rinsa-da, bejirim burun, bejirim lab, bejirim yuzli odamlarga nisbatan istaraliroq edi.* (I kitob, 29-b.); *Giyohvand yigitlardan birining pastki labi osilgan, ko'zlari chaqchaygan, ikkinchisining qarashlari sovuq, o'ng yuzida uzun tirtig'i bor edi* (III kitob, 210-b.); *Videobar og'asi, chaqchaygan ko'zlaridan biron-bir ma'no uqish mushkul bo'lgan, qalin mo'ylovi turtib chiqqan tumshug'iga husn berish o'rniga battar xunuklashtirgan barzangi yigit...* (I kitob, 63-b.).

Erkaklarning tana a'zolari qismi ifodasini aks ettiruvchi gender stereotiplariga quyidagilar kiradi: *bo'yni yo'gon, tepakal, qanshari pastroq, davangirday, shopmo'ylov, hamma yog'i yung, ingichka mo'ylov, cho'qqisoqol, qo'ng'iz mo'ylov, sersoqol, alpqomat, bahaybat devday, barzangi, gavdali, oyoq-qo'li uzun, mitti, ixchamgina, davangirday, beli baquvvat, xushsurat, ko'rimsizgina, fildek, polvon, pahlavon, buqaday* kabi. Misol uchun, *Bu xirildoq ovoz boshiga gurzi bo'lib urilib, sapchib tushdi* (I kitob, 7-b.); *Bu xushsurat yigit, xotinini o'ldirib qamalib ketganidan keyin ham shuhrati so'nmagan...* (III kitob, 17-b.); *U uch boshli ajdarhoni yengish qasdida chiqqan ulovsiz, yarog'siz pahlavon holidi edi.* (II kitob, 201-b.); *Saidqimorboz vodiya beli baquvvat yigitlardan edi.* (II kitob, 24-b.); *... qishloqqa tepakal bir o'ris jingalak sochlari oqarib ketgan bir o'zbek bilan kelib, Zohidni surishtirdi.* (III kitob, 69-b.); *...choyni ichib ulgurmay, jussasi kichik, eti ustixoniga yopishgan, qaldirg'och mo'ylavi o'ziga yarashgan odam ko'rindi. ... Ozg'in, chayir bo'lgani uchun Kesak polvon,*

deb atashgan, desangiz, yanglishasiz. (I kitob, 64-b.); Kesak polvon mushtlashguday bo'lsa mushukday sapchib, uch-to'rt davangirday yigitga bas kelardi. (I kitob, 65-b.).

Erkaklarning xarakteri ifodasi orqali aks ettiriluvchi gender stereotiplariga quyidagilar kiradi: *boshi buzuq, badjahloq, halimgina, xunxo'r, mard, cho'rtkesar, mishiqli, chapdast, chaynalmasdan erkakchasiga, loqayd, musulmonsheva* kabi. Misol tariqasida: *Sen bir boshi buzuqning marhamati bilan menga ozodlik bermoqchi bo'libsan. (IV kitob, 133-b.); Men xunxo'r odamman.. (V kitob, 210-b.); Odamni o'limga hukm etganida yuragi jiz etib qo'ymaydigan Asadbekning uyda musulmonsheva bo'lishi siz uchun g'alati tuyulishi mumkin. (I kitob, 27-b.); Bu qanaqasi, mishiqli boladay ping'illab qoldimmi? (II kitob, 11-b.); - Hofiz, chaynalmasdan erkakcha gaplashaylik. (IV kitob, 127-b.); Prokuratura xodimlari uning ko'ziga loqayd to'ralar sifatida ko'rindi. (III kitob, 119-b.); Idorada qorovullik qiluvchi yosh, chapdast yigitlar barcha ishni vaqtida aniq bajarilishini ta'minlaydilar. (I kitob, 62-b.).*

Erkaklarga xos xatti-harakatlar ifodasini namoyon etuvchi gender stereotiplarga quyidagilar kiradi: *irg'ib turmoq, mushtlashmoq, qitmirlik qilmoq, yotqizib-turg'izmoq, ko'z qismoq, aysh qilmoq, maishat qilmoq* kabi. Masalan, *U suyunganidan irg'ib turib, tashqariga yugurib chiqishi kerak edi. (I kitob, 9-b.); Umrini maqtov eshitish-u chiroyli qiz-juvonlar bilan aysh-ishrat qilishga tikkan idora boshlig'ini Xolidiy emas, balki.... (II kitob, 180-b.); Anvarday cho'rtkesar olimning bahridan o'tish Xolidiyga cho't ekanmi? (III kitob, 113-b.); Kimgadir qitmirlik qilishim kerak-ku? (IV kitob, 55-b.); Asadbek ikkita gapni yoqtirmaydi, - dedi Elchin ovozini bir parda ko'tarib, qat'iyroq buyruq ohangida (I kitob, 17-b.); Uchquduqda ekanida qamoq ahlini yotqizib-turg'izadigan mahbuslar unga ozor berishmasdi (II kitob, 91-b.); Bu mahalla tinch, yigitlar yilda bir-ikki marta mushlashishmasa, jinoyatdan ancha yiroq edi (V kitob, 178-b.); Televizorni dastlab ko'rgan mahalda g'uncha labli qizga ko'z qisib, imlab qo'yib bir hafta o'zicha xursand bo'lib yurgan odamning o'g'li... (I kitob, 59-b.); Kimdir tuni bilan televizor ko'rib, kimdir ulfatlari bilan to'yib ichib, kimdir jononlar bilan*

to'yib maishat qilib, endi hordiq chiqarardi (III kitob, 82-b.); *Yaktagi ustidan qo'shbelbog' bog'lagan o'rta yashar kishi uning e'tiborini tortdi* (IV kitob, 123-b.).

Demak, erkak kishiga xoslikni bildiruvchi asosiy tashqi belgi xususiyatlarga gavdaning ayolnikiga nisbatan yirik bo'lishi, yelkalarining keng bo'lishi, oyoq-qo'lning baquvvat va uzun bo'lishi, yuz tuzilishi ayolnikidan tubdan farq qilishi, asosan, soqol-mo'ylovning mavjudligidir. Bundan tashqari, faqat erkaklargagina xos bo'lgan xarakter xususiyati hamda muayyan xatti-harakatlar erkaklikning bosh va muhim ifodasi sifatida adib tomonidan qahramonlar tasvirida qo'llaniladi. Ana shu o'ziga xosliklar erkaklarga xos bo'lgan gender stereotiplardir.

Ayollarga xos tashqi ko'rinishni aks ettiruvchi gender stereotiplar erkaklarga xos bo'lgan stereotiplardan katta farq qiladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- a) yuz a'zolari qismi ifodasi;
- b) tana a'zolari qismi ifodasi;
- c) xarakter ifodasi;
- d) xatti-harakat ifodasi.

Ayolning yuz a'zolari qismi ifodasini aks ettiruvchi gender stereotiplariga quyidagilar kiradi: *qora qosh, qora ko'z, jodu ko'zli, xumor ko'z, ohu ko'z, bodom qovoq, qoshi kamon, oydek, kulgich, oppoqqina, parichehra, g'uncha labli, qizil olmaday, popukday, qirmizi yanoqli, gulyuzli, uzun kipriklar, qaldirg'och qanotidan nusxa olgan qoshlar, bejirim lablar* kabi. Masalan, *Achomlashgan uzun kipriklar pastki qovog'iga soya tashlagan, bejirim lablari qimtilgan, qaldirg'och qanotidan nusxa olgan qoshlari esa taranglashgan* (I kitob, 8-b.); *U deraza ortida bir parichehra qizni ko'rdi* (II kitob, 80-b.); *Kesakpolvon bo'y yetgan qizining yuzlaridan chimdib, "popuk" deb erkaldirdi* (I kitob, 142-b.); *Hamshira kulganida yuzidagi kulgichlari chiroyli bo'lib ketardi* (III kitob, 77-b.); *Bu kuchdan juvonning qirmizi yanoqlari yanada qizarib ketdi-yu, o'ng'aysizlanib, yuzlarini kaftlari bilan to'sdi* (IV kitob, 176-b.).

Ayollarning tana a'zolari qismi ifodasini aks ettiruvchi gender stereotiplariga quyidagilar kiradi: *oppoqqina, do'mboqqina, do'ndiqcha, bo'liq*

ko`krakli, sarvqomat, sochlari uzun, jamalaksoch, mallasoch, qo`hlikkina, nozik bo`yni, lo`ppigina, oyoq-qo`li chaqqon, qo`li gul, durkun ko`krakli, ninachidek ozg`in badan, tili bir qarich kabi. Misol uchun, *U shunday deb do`mboqqina, oppoqqina tabibboshiga ko`zlarini lo`q qildi* (I kitob, 16-b.); *Biri biridan shirin qizlar mashinaga ildam chiqib o`tirishadi* (II kitob, 62-b.); *Onasi – ellik yoshlarga borgan, faqat bu dunyo bilan emas, balki go`zalligi bilan ham xayrlashishga shoshmayotgan qo`hlikkina ayol edi* (III kitob, 185-b.).

Ayollarning xarakteri ifodasi orqali aks ettiriluvchi gender stereotiplariga quyidagilar kiradi: *husnda tanho, sohibjamol, jonon, lobar, shirin, noshud, mushfiq, yengiltak, suyuqoyoq, jodugar, xushro`y, sharmanda, ma`suma, hajiqiz, tug`mas, mute, juvon, malika, onasi o`pmagan, baodob, farishtaday oqko`ngil* kabi. Masalan, *Agar tug`mas xotinlar delegatsiyasi chet elga boradigan bo`lsa ham bu odam ro`yxatning boshida turar edi* (II kitob, 122-b.); *Eng lobar qiz ham unga jon-jon deb tegishi mumkin* (I kitob, 21-b.); *Elchin “jodugar kampirga uylanyapman” deganida Anvar bunchalik hayratlanmas edi* (I kitob, 21-b.); *Shu bois qizning yengiltaklik bilan qadam bosishiga ishonmasdi* (III kitob, 66-b.); *“Bolalarni o`zingga o`xshatib mute qilib qo`yma” derdi* (I kitob, 27-b.); ... *har sahar turib, samovar qo`yib erini kutgan mushfiq ayol haqida keyinroq so`z ochaman* (I kitob, 27-b.); *Sen hajiqizning ishini qilding* (III kitob, 200-b.); - *He noshud, - Asadbek shunday deb g`ijindi* (II kitob, 29-b.); *Deraza yonidagi kursida yosh juvon boshini ushlab o`tiribdi* (V kitob, 187-b.); *Ular shaharga dong`i ketgan odamning xotini dur-u gavharlarga ko`milib yashaydigan malika deb o`ylashganmi, ...* (I kitob, 204-b.); *Shunday do`xtirlar borki, kerak bo`lsa o`nta tuqqan ayolni ham onasi o`pmagan qizga aylantirib qo`yadi* (III kitob, 201-b.).

Ayollarga xos xatti-harakatlar ifodasini namoyon etuvchi gender stereotiplarga quyidagilar kiradi: *ohista qadam tashlamoq, hurkib yashamoq, lallaymoq, chimirilmoq, tug`moq, ko`kragini tutmoq, jon-jon deb tegishi mumkin, bevalikning taxir oshini totmoq, chimirilmoq, yuzini chetga burish, cho`chib tushmoq, jilmaymoq, ohista, noz-u karashma qilmoq, tegmoq, anqaymoq, kaltakdan qo`rqib yashardi, yengil qadam bosmoq, uzib olmoq* kabi. Misol

tariqasida, *Hamshira kulib, yuzini chetga burdi* (III kitob, 24-b.); *U o`zini chindan ham osmondan tashlab yuboradiganday tuyulib, cho`chib tushdi* (V kitob, 187-b.); *Tabibboshi malol kelganini yashirmay chimirilib qo`ydi* (I kitob, 17-b.); *Olti yildan beri bevalikning taxir oshidan bezgan ayol uchun birgina shunday qarash yetarli edi* (I kitob, 17-b.); *Xotini esa eshikni ohista, xuddi sindirib qo`yishdan avaylaganday ochdi* (V kitob, 107-b.); *Shu bois erining bir kunmas – bir kun qattiq do`pposlab qolishidan qo`rqib yashardi* (II kitob, 122-b.); *...ikkinchi o`g`lini tug`ib chiqqanida eri qamalganini eshitgan,...* (III kitob, 203-b.); *“Bu lallaygan xotin eplab bir bahona o`ylab topolmasa...”* (IV kitob, 55-b.); *Men anqayib turaverdim* (I kitob, 43-b.).

Demak, biz tahlilga tortgan misollar faqat ayollarga xos tashqi ko`rinish va xarakterni ifodalovchi nutqiy birliklardir. Ma`lumki, ayol va erkak tanasi o`ziga xos tuzilishga ega, ana shu farqlanuvchi omillar badiiy matnda o`z ifodasini topgan. Adib ayol obrazini tasvirlashda nozik va sarvqomat, jozibador va latofatli, qosh-ko`zlarida erkakni sehrlab qo`yishga qodir kuch yoki jodusi bor, g`uncha dudog` va qirmizi yanoq, mayin va shirali ovoz sohibasi degan go`zal ta`riflardan foydalanadi. Ana shu belgi va ta`riflar bevosita ayollarga xos bo`lgan gender sereotiplarni shakllantiradi.

Xulosa sifatida shuni ta`kidlash lozimki, erkak va ayolning nutqi, dunyoqarashi, madaniyatidagi tafovutlarning tildagi ifodasi gender tilshunosligining muhim jihatlaridan biridir.

2.2. Murojaat shakllari va mulozamat – manzirat ifodalovchi birliklarning gender xoslanishi

Azal-azaldan o'zbek xalqi o'zining mehmondo'stligi, yaqinlariga mehr-oqibatligi, xushmuomalaligi bilan alohida ajralib turadi. Kishilar yaqinlarining boshiga og'ir musibat tushganida ham, shodiyona yoki quvonchli kunlarida ham bir-birlarining ko'nglini ko'taruvchi, yupatuvchi, qutlov so'zlarini muloqot jarayonida keng qo'llaydilar. Ayni shu madaniy xususiyat adibning o'lmas asarida mahorat bilan ochib berilgan. Bunday so'zlar mulozamat-manzirat leksikasi, ya'ni, iltifot ifodalovchi nutqiy birliklar deyiladi. Mulozamar-manzirat ifodalovchi shakllar kishilar o'rtasidagi qarindoshlik, do'stlik va yaqinlik munosabatlarini mustahkamlaydi. Bunday munosabatlar fatik kommunikatsiya termini bilan yuritiladi.

Fatik kommunikatsiya termini ilk bor ingliz etnologi B.Malinovskiy tomonidan qo'llanilgan bo'lib, mulozamat (manzirat) ko'rsatish funksiyasini ifodalaydi. Bu atama lotincha "gapirish" ma'nosini bildiradi, ba'zan uning o'rnida "sotsiativ" so'zi ham ishlatiladi⁶.

O'zbekning kundalik hayotini mulozamat-manzirat shakllarisiz tasavvur qilish qiyin, shunday ekan, T.Malik ham o'z qissasida bu hodisani mahorat bilan tasvirlab beradi. Chunki o'zbekning nutqi bunday so'zlarsiz jo'n, rasmiy, hatto, qo'pol bo'lib qoladi. Tildagi mulozamat-manzirat shakllarni ishlatilish o'rniga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. So'rashish, ko'rishish va xayrlashish jarayonida ishlatiladigan mulozamat shakllari.
2. To'y-hasham, mehmondorchilik va boshqa shodiyona kunlarda ishlatiluvchi mulozamat shakllari.
3. Aza-motam yoki qayg'uli vaziyatlarda ishlatiladigan mulozamat shakllari.

⁶ Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Filol.fan.dokt.diss. Toshkent.- 2000, 56-b.

4. Nutqda doim iste'molda bo'lgan barcha boshqa vaziyatlardagi mulozamat-manzirat shakllari.

Mulozamat-manzirat shakllarining ifodalanishini jinslar nisbatiga ko'ra:

- a) ayollarga xos mulozamat-manzirat shakllari;
- b) erkaklarga xos mulozamat-manzirat shakllari;
- c) ayollar va erkaklar nutqida birdek qo'llanishda bo'lgan neytral mazmundagi mulozamat-manzirat shakllariga ajratamiz.

Fatik kommunikatsiya jarayonida adresant va adresatlarning jins jihatidan farqlanishi sodir bo'ladigan nutqiy vaziyatda yaqqol aks etadi. Jumladan, ayollar nutqini mulozamat-manzirat shakllarisiz tasavvur etish imkonsiz, chunki bunday so'zlar ayollar nutqining shirin, muloyim bo'lishini ta'minlaydi. Ayniqsa, o'zbek ayoli bunday so'zlarga kundalik turmush tarzida deyarli doim murojaat qilib turadi. Erkaklar nutqida esa bu holat birmuncha passiv amalga oshadi. Ammo "Shaytanat" asari qahramaonlari, aksariyat, erkak jinsiga mansub bo'lganlari uchun ham bunday qat'iy fikr aytishdan yiroqmiz, sababi, erkaklar nutqida ham mulozamat-manzirat shakllari yetarlicha o'rin tutishini ko'ramiz.

So'rashish jarayoni, avvalo, salomlashishdan boshlanadi. Ayollar va erkaklar salomlashish tarzi bir-biridan katta farq qiladi. Salomlashish turli ijtimoiy tabaqaga mansublikka, yashash manzili (qishloq yoki shahar)ga, muayyan ruhiy holatga, kim bilan so'rashayotganiga ko'ra, shuningdek boshqa muloqot vaziyatlariga qarab ham turlicha amalga oshirilishi mumkin. Salomlashish jarayonida noverbal vositalardan ham unumli foydalaniladi. Shuningdek, turli yoshdagi kishilar salomlashishlari yoki ko'rishishlarida ham o'zaro katta farq bor.

Eng avvalo, salomlashish turlari haqida gapirar ekanmiz, erkaklarning erkaklar bilan salomlashishi hamda erkaklarning ayollar bilan salomlashishini alohida guruhga ajratamiz. Misol tariqasida: *Jamshid o'zbeklarga xos lutf bilan salom berib, "Siz falonchi akamisiz?", "Sizni falonchi akam yo'qlayaptilar" deb latta chaynashni yoqtirmas edi. Eshik qiya ochilib, Elchin ko'rinishi bilan "Sizni Bek akam chaqiryaptilar" dedi-yu mashinasi tomon yurdi. (I kitob, 34-b.) - Og'ayni, tanishib olaylik, ismingiz nima edi? – Elchin bu yigitni avval yaxshi*

tanigan-u, shu damda ismini unutib qo'yganday so'radi. (I kitob, 35-b.) – Keyin... keyin, bir gap bo'lar... – Elchin shunday deb, xayrlashish uchun qo'l uzatdi. (I kitob, 155-b.) Asadbek ulardan hech mahal hol-ahvol so'ramasdi. Ikki oyoqda yuribsanmi – bas, ahvoling yaxshi, derdi. Shuning barobarida birovning hol so'rashini ham yoqtirmas edi. Tobi qochib qolgan kezlari uning odatini bilmagan odam: “Tuzukmisiz?” deb so'rasa, “Ha, o'lishim kerakmidi?” degan shirin javobni eshitardi. (I kitob, 165-b.) Misollardan ma'lum bo'ladiki, erkaklar o'zaro salomlashganda, ko'rishganda yoki xayrlashganda ularning nutq odobida bu ishni alohida lutf-u nazokat bilan amalga oshirishga ishtiyoqning yo'qligi erkaklar salomlashishidagi o'ziga xoslikni belgilaydi.

Erkaklar o'zaro so'rashishganda ham muayyan muloqot me'yorlariga amal qiladilar. Misol tariqasida *“Assalomu alaykum, salom berdik, salomlar bo'lsin, yaxshimisiz, omonmisiz, qalaysan, bormisan, o', kimni ko'ryapman”* kabi birliklarni keltirishimiz mumkin.

Erkaklar bilan ayollar so'rashishlari haqida to'xtaladigan bo'lsak, bu jarayon ham o'zbeklarga xos odob-axloq qoidalariga qat'iy rioya etilgan holda bo'lib o'tadi.

Ayollarning o'zaro salomlashishlari – bu alohida mavzuiy guruh bo'lib, o'zbek nutq va muloqot odobidan kelib chiqqan holda uning naqadar boy manbaga asoslanishini ta'kidlashimiz zarur. Biroq asar bayonida bosh qahramonlar erkaklar bo'lgani uchun asosiy e'tibor ularning murojaat shakllariga qaratiladi. Ayollarda bu nutqiy vaziyat quyidagi hollarda uchraydi: *Hozir oshxona ostonasini hatlab chiqdi-yu, qo'rquvdan pirpirayotgan ko'zlarini eriga tikib, salom berdi. So'ng: - Yaxshi keldingizmi, adasi, - dedi. Bu gapini o'zigina eshitdi. Qo'rqibgina, astagina aytolgan so'zlar havoga singib ketdi. (II kitob, 121- b.) – Menman, oyi, assalomu alaykum. – Voy, bolaginamdan aylanay, kelgan bo'lsang o'rgilay, eson-omongina keldingmi, jon bolam, - u shunday deb o'rnidan turmoqchi bo'ldi. (III kitob, 145-b.)*

So'rashish jarayonining keyingi bosqichida suhbatdoshlar bir-birlarning hol-ahvoli bilan qiziqadilar. Odatda, o'zbek ayollari o'zaro uzoq so'rashishadi.

Nutqimizda turg'un bo'lib qolgan so'rashish qurilmalaridan yozuvchi ham unumli foydaladi. Masalan, *“Esonmisiz, omonmisiz, bormisiz, yaxshimisiz, sog'-omongina yuribsizmi, bardam-baquvvatmisiz, adam (yoki boshqa oila a'zolari so'raladi, ba'zan ularning ismi aytib so'raladi) yaxshimilar, yaxshi yuribdilar, yaxshi bo'lib qoldingizmi, opoq bo'lib qoldingizmi, uychilar tinchmi”* kabi. Bu birliklar asar qahramonlari nutqining hayotiyiligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunday nutqiy birliklardan mahorat bilan unumli foydalangan adibning yutug'i ham aynan shunda, deb o'ylaymiz.

O'z navbatida, ayollarning so'rashish vaziyati mavzuiy guruhlariga ayollarning ayollar bilan ko'rishishlari, ayollarning erkaklar bilan ko'rishishlari kabi ikki katta guruhga ajratiladi. Ayollarning ayollar bilan salomlashish, so'rashish, ko'rishish yoki xayrlashish nutqiy vaziyatida qo'llovchi birliklar ayollarning erkaklar bilan ko'rishganda yoki salomlashganda qo'llaydigan birliklaridan farq qiladi.

To'y-hasham, mehmondorchilik va boshqa shodiyona kunlarda ishlatiluvchi mulozamat shakllarini o'rganar ekanmiz, ularning ham erkaklarning hamda ayollarning shunday nutqiy vaziyatda qo'llovchi birliklarini alohida ajratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xursandchilik vaziyati erkaklarda ham, ayollarda ham muayyan ijobiy kayfiyat bag'ishlovchi nutq birliklaridan foydalanishni taqozo etadi. Masalan, *Bir ko'chani changitib ulg'aygan yigitlar fotiha to'yidan darak topishgan, ular uchun Afzalning harbiydan qaytgani bir shodlik bo'lsa, ulfatlaridan birining bo'ydoqlik qo'rg'onini buzib uylanayotgani o'n shodlik edi.* (I kitob, 11-b.) – *Uylanyapsanmi? Qutlug' bo'lsin. Shuni oldinroq aytmayсанmi?* – *Asadbekning qizini olyapman, - dedi do'stiga tikilib.* (I kitob, 21-b.) *Xizmat restoran xodimlari-yu xodimalaridan ortmasa ham, “qamishdan bel bog'lab xizmat qilishni niyat etganlar” tinib-tinchishmasdi. To'y harakati ichkarida bo'lishiga qaramay, Asadbek turgan yerda ivirsishardi.* (I kitob, 216-b.) *Qiz kuyovnikiga ketar oldidan otasi huzuriga bosh egib keluvi, otaning esa duo qiluvi rasm edi. Zaynabni shu rasmga binoan boshlab keldilar, ammo o'z hovlisida emas, restoran ostonasida,*

mast-alast nigohlar guvohligida duo qilmog'i lozim bo'ldi. U ko'p yaxshi niyatlarni diliga tugib qo'ygan edi. Qizining mo'minlik bilan bosh egib kelayotganini ko'rganidayoq hushi uchdi, tomog'iga bir nima tiqildi. ... fotihaga qo'l ochdi. Hayajon o'ylab qo'ygan gaplarini to'zitib yuborgan edi. ... "Baxtli bo'lg'in, qizim", deyishdan o'zga so'z topolmadi. Qiziga yaqinlashib, peshonasidan o'pdi. (I kitob, 238-239-b.). Ko'rib turganimizdek, erkak kishi muayyan xursandchilik vaziyatida hayajon tufayli erkaklarga xos qat'iyatlilikni biroz bo'lsa-da yumshatishi hamda uning xatti-harakatlarida erkaklarga xos nazokat va samimiylilik o'zgacha holatda namoyon bo'lishi mumkin.

To'y-hasham, mehmondorchilik, shodiyona kabi xursandchilik ruhi hukmron bo'lgan nutqiy vaziyatda ayollarning o'zlarini qanday tutishi yoki ayollarga xos tabiati qay holatda namoyon bo'lishini T.Malik "Shaytanat"da quyidagicha tasvirlaydi: *Sovchilar ishni pishirgan, ertaga qizning uyida non sindiriladi (I kitob, 11-b.). Hovli etagida "oshxona" nomi bilan zikr etiluvchi bostirmaning eshigi zorlanib ochilib, Nasiba chiqib keldi. U eri tomon bir-ikki qadam qo'ydi. So'ng nima qilarini bilmay tosh kabi qotdi. Keyin beixtiyor ravishda yugurib kelib, Sharifni quchoqlab oldi. ... Ular ilk marta yolg'iz qolib bir-biriga aytishga so'z topolmay iymenib o'tirgan kelin-kuyovga o'xshashardi (III kitob, 109-b.) – Voy, aylanay, sizdan, egachi, tanimabmiza, Keling boshqatdan ko'rishaylik. Esonmisiz, omonmisiz... Biz o'g'irlikka keluvdig-a... (V kitob, 204-b.) Sovchilik marosimi ham yuz, balki ming yillar davomida bir qolipga tushgan. Xotinlar o'zlarini qanday tutishni, nima deyishni yaxshi biladilar. Mana hozir Manzura: "Hali tayyorgarligimiz ham yo'q", dedi. Bu – qizimizni uzatishga rozimiz, ammo siz aytganday ertaga emas, balki indinga, degani. ... Lekin qizi bor odam noz qilmasa, "diplomatiya" qonun-qoidalari buziladi. Sovchilar uy sohibasining ko'nglini ko'taradigan bir-ikki gaplarni aytib, lutf ko'rgazib, o'rinlaridan jilishdi. Juvonlar biroz xijolat chekkach, biroz noz qilgan bo'lib, qog'oz xaltani olishdi. Bu ham diplomatiyaning bir qoidasi – rozilik alomatiga ishora. Ertaga bu juvonlar tugun ko'tarib kelishadi. Manzura patir nonlarni olib qoladi. Oqshomda erkaklar kelishadi. (II kitob, 206-b.) Misollardan ma'lum*

bo`ladiki, o`zbek xalqi nutq odatida alohida olingan marosimlarda erkaklarning vazifalari, xatti-harakatlari hamda ayollarning vazifalari va har bir xatti-harakatlari izchillik bilan ishlab chiqilgan, adib aytganiday, yuz, balki ming yillar davomida shakllantirilgan. Shunday ekan, har bir jins vakillari o`z xoslik doirasidan chiqib ketmaydi.

Asarda ko`plab uchragan misollar orqali ajratilgan mavzuiy guruhlar orasida aza-motam yoki qayg`uli vaziyatlarda ishlatiladigan mulozamat shakllari alohida o`rin egallaydi. Bunday vaziyatda erkaklar nutqiga xos bo`lgan mulozamat shakllari, bizning tasavvurimizda, ayollar nutqida kuzatiladigan shu vaziyatdagi mulozamat shakllariga nisbatan birmuncha tor doirada, deb o`ylashimiz mumkin. Chunki, odatda, erkak kishi boshiga biron tashvish tushsa, uni boshqa birovga bildirishi, undan qandaydir munosabat, ayniqsa, taskin kutishi mumkin emas. Lekin asar bo`yicha to`plangan misollar tahlili buning aksini namoyon qildi. Erkaklar ham qayg`uli vaziyatda o`z dardini ma`lum usullar orqali ifodalar ekan. Bu ifoda uning xatti-harakatlari bilan bir qatorda nutqida ham aks etadi.

-Yomonmas-ku, mozorimizdan avliyolar ketib qolishibdi... Odamlardan iymon ko`tarilganmikin... – He... tentak, shumi topgan gaping, nima ekan debman. (IV kitob, 61-b.) Hozir ham oshnasining gapni maydalashiga toqat qilolmadi: - Yorilsang-chi! – dedi u jerkib. – Mendan boshqa dardkashing bormi? ... Gapirish oson. “Yorilish” – xotinlarga xos. Erkak dardini aytguncha to`lg`oq azoblarini boshidan kechiradi. (III kitob, 115-b.) Tilla tishlari sug`urib olingan odam ixrashlarini bas qilgan, ammo uning zorli ovozi Sharifning quloqlariga muhrlanib qolgan edi. Kap-katta erkak odamning so`yishga mahkum etilgan buqaday o`kirishi, so`ng tul xotinday piqillab yig`lashi, keyin omonatini topshirishga qasd qilgan, so`nggi nafasleri bilan ingranayotgan bemor kabi ovoz chiqarishi faqat Sharifga atalganday edi. (I kitob, 104-b.) – Samandar ... o`ldimi? – dedi Jalil Asadning yengidan tortib. “Samandar o`ldi?!” “Samandar o`ldi...” Bu gap Asadning miyasiga to`qmoqdek urilib, tovonigacha zirillatib yubordi. Biroz nest bo`lib turdi-da, keyin uyga otilib kirdi. Asad ota o`rnida ota bo`lib ukasini so`nggi makonga qo`yib keldi. Qo`ni-qo`shnilar uni katta odamday ko`rib, ta`ziya izhor

etishdi. (I kitob, 172-173-b.) – Sochimni bo'yab qoraytirishdan maqsad qaytadan yosharib gunoh qilish emas. Qora to'n motam ramzi bo'lgani singari, sochimni qoraytirishdan maqsad – o'tib ketgan yoshligimga motam tutishdir... (II kitob, 256-b.)

Biz misollarni berganda izohi bilan olishga harakat qildik, chunki bunday qayg'uli vaziyatning mohiyatini tushuntirish, dardning ko'lamini ochib berish uchun faqat bir gap yetarli bo'lmaydi. Erkaklar nutqida, xatti-harakatlarida ularning kulfatga munosabatini adib mohirlik bilan ochib bera olgan.

Ayollar bunday qayg'uli vaziyatlarda o'zlarini nisbatan erkin tutishlarini bilamiz. Asar qahramonlari holatida ham bu yaqqol namoyon bo'ladi. *Tongga yaqin onasining ingrayotganini eshitdi. (I kitob, 8-b.) Elchin birinchi kirganida "Oyijon!" deb o'zini himoya qilgan, jonholatda tipirchilagan qizni yenga olmadi. ... Keyingi safar qiz "Oyijon!" deb baqirganida Noilaning nolasini eshitganday bo'ldi. (I kitob, 93-b.) Jarangdor ovoz dohiyning o'lim topganini e'lon qilgach, radio yonida o'tirgan shop mo'ylovli erkak "voy, otam", deb yig'lab yubordi. Bir yigit hushidan ketib shilq etib yiqildi. "Voy, endi nima qilamiz?" deb bir ayol chinqirdi. (I kitob, 173-b.) Chunki ayol yuksak madaniyat sohibasi edi. Bu gapdan dahshatga tushmadi, uvvos tortib yig'lab yubormadi. Indamay burildi-da, katta xona tomon yurdi... Ayol sigaret tutatdi. (II kitob, 187-b.) "Tug'moq boru, ko'mmoq yo'q ekan-da...." (II kitob, 188-b.)*

Nutqda doim iste'molda bo'lgan barcha boshqa vaziyatlardagi mulozamatmanzirat shakllari haqida to'xtalar ekanmiz, asardan to'plangan misollardan namunalardan keltirib, bunday neytral vaziyatlarda erkaklarga ham, ayollarga ham birdek xos bo'lgan, yoki boshqacha qilib aytganda, jinsga ajratilmaydigan alohida nutqiy birliklarning talaygina ekanligini qayd qilamiz. Masalan, *G'animlari bilan har kun, har soat olishuvchi, har daqiqa biror falokat ro'y berishi mumkinligini hisobda tutib yashovchi odam noxush damlarda tez fikrlashga, tez xulosa chiqarishga odatlanadi. (IV kitob, 24-b.) Ayollarning sochi uzun, aqli kalta, deganlar, ularning ko'ngli sezgir bo'lishini hisobga olmagan bo'lishsa kerak. Xonadonlari boshi uzra yopirilib kelayotgan abri baloni erlardan avvalroq*

sezadilar. Sezadilar-u, uni qaytarishga ojizlik qiladilar. (III kitob, 87- b.) Asadbek nima gapligiga tushundi. "Bundan ko`ra o`ldirishgani yaxshiroq edi, - dedi o`ziga –o`zi, - bu shunchaki tasodif". (II kitob, 127-b.)

Xulosa sifatida ta`kidlash joizki, asar matnida uchraydigan turli situativ vaziyatlarda erkaklar va ayollarning lisoniy ifodalari o`ziga xosligi bilan ajralib turadi.

2.3. Qarindoshlik asosidagi shaxs nomlarining gender xususiyatlari

O'zbek tilining boy imkoniyatlari insonga qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan shaxslarni turli nomlar bilan atash uchun keng ko'lamli manba bo'lib xizmat qiladi. Bunday nomlarda maskulinlik va feminlik belgilari yaqqol namoyon bo'ladi. Nutq jarayonida adresantlarning dunyoqarashi, xarakter xususiyatlari, ijtimoiy-madaniy sa'viyasi, atrofdagilar bilan munosabati ro'yobga chiqadi. Ayniqsa, apellyativ nominatsiyasida so'zlovchining tinglovchiga nisbatan salbiy yoki ijobiy munosabati bevosita aks etadi.

“Tilning barcha vazifalari: kommunikativ, emotiv, aloqa o'rnatish, ijtimoiy funksiyalari so'zlovchi va tinglovchi orasidagi turli-tuman munosabatlarni ifodalaydi. Murojaatning mazmunan har xil shakllanishi – quvonch, ta'na, qo'rqinch, gina, iltifot, nafrat kabi ma'no ottenkalari qo'shilgan holda ifodalanishi – eng avvalo, ijtimoiy muhit va sharoitdan kelib chiqadigan munosabatga bog'liq”.⁷

Ingliz tilida “murojaat” ma'nosini ifodalovchi lingvistik termin sifatida ilmiy muomalaga kirgan. Nominatsiya, ya'ni, nom lotincha “nomination” so'zidan olingan bo'lib, tilda atash vazifasini bajaruvchi birliklarning hosil bo'lish jarayonidir”.⁸ Demak, apellyativ nominatsiya – murojaat nominatsiyasi atamasi o'rniida ishlatiladi. Murojaat nominatsiyasi tilshunoslar tomonidan atroflicha tadqiq qilingan bo'lsa-da, bunday birliklarning jinsda farqlanishi, ayol yoki erkak nutqida qay tarzda amalga oshishi, ayniqsa, oilaviy masalalar gender tilshunosligining dolzarb masalalaridandir.

N.Ahmedova tadqiqotida quyidagi jihatlariga e'tibor qiladi: “Odatda, so'zlovchi tinglovchining mavqeyidan kelib chiqib, quyidagicha murojaatlarni ishlatish mumkin: ona, qiz, opa, singil, ayol, xodim, hamkasb, dugona, xola,

⁷ Akbarova Z. O'zbek tilida murojaat shakllari va ularning lisoniy tadqiqi. Filol.fan.nom...dissert. Toshkent, 2007, 15-bet.

⁸ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Москва, «Советская энциклопедия», 1969. с. 270.

amma, jiyan”.⁹ Ushbu izlanishda ayol jinsiga nisbatan qoʻllanuvchi qarindoshlikni bildiruvchi murojaat birliklari keltirilgan. Bulardan baʼzilari, masalan, jiyan yoki xodim kabi leksemalarda, aslida, jins farqlanmaydi, yaʼni, erkak uchun ham, ayol uchun ham umumiy nominativ birlik sifatida teng qoʻllanadi.

Mazkur boʻlimda oilaviy munosabatlar tizimida erkak va ayollar nutqi murojaat shakllarining Tohir Malik qissasida boy mazmunda hamda keng koʻlamda alohida qalamga olinganiga amin boʻlamiz.

Ijtimoiy munosabatlar tizimida oilaviy munosabatlar oʻziga xos tadrijga ega. Biz nominatsiyaning bunday tadqiqini quyidagicha turlarga ajratib tahlil qildik:

1. Oilada yaqin qarindoshlik munosabatidagi shaxs nomlari.
2. Oilada nisbatan yaqin boʻlmagan qarindoshlik munosabatidagi shaxs nomlari.
3. Nominativ vazifa bajaruvchi laqab va taxalluslar.

Murojaat shakllari obyektning aniq yoki noaniqligiga koʻra ikki turga ajratiladi:

- a) abstrakt murojaat shakllari (*ey, hoy, sen, siz*);
- b) konkret murojaat shakllari. Murojaatning bu turida ism, laqab, taxallus, insonga xos boʻlgan belgi-xususiyat bildiruvchi leksik, insonni atovchi nominativ birliklar murojaat shakli vazifasini bajaradi.

Oilada yaqin qarindoshlik munosabatidagi shaxs nomlariga quyidagilar kiradi: *ota, ona, ada, dada, oyi, aya, aka, uka, opa, singil, oʻgʻil, qiz, xotin, er-xotin, bola-chaqa* kabi.

Erkak kishiga nisbatan qoʻllanuvchi nomlar orasida, ota semasini ifodalovchi leksik birliklar, ayniqsa, alohida eʼtirof etiladi. Otaga yaqin oila aʼzolari tomonidan murojaat qilinganida, odatda, uni ismini aytib chaqirish hurmatsizlik hisoblanadi. Eriga *otasi, dadasi, dadajonisi, bobojonisi, buvasi, bovasi* deb murojaat qilishda “*farzandlarining otasi*”, “*hurmat*”, “*yosh*

⁹ Ahmedova N. Oʻzbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi. Filol.fan.nom...diss. Toshkent, 2008, 114-bet.

pog'onasining yuqori bosqichiga mansublik” va *“qarindoshik”, “yaqinlik”* kabi semalar namoyon bo`ladi.

Ma'lumki, o'zbek oilasida, odatda, ayol o'z eriga ismi orqali juda kam hollarda murojaat qiladi. Boisi, ayolning o'z eriga bo'lgan cheksiz hurmati, qadrlashi, shu bilan birga faqat sharq ayollarigagina xos bo'lgan nafaqat o'z turmush o'rtog'iga, balki oilaning boshqa a'zolariga ham andisha, xijolat yoki uyalish kabi tuyg'ularning ustunligidandir. Shu sababli xotin o'z eriga *odam, bu kishi, aka* (ismiga qo'shib), *begim, jonim, azizim* kabi murojaat shakllarini qo'llaydi. *Odam, bu kishi, aka* kabi leksik murojaatlarni, odatda, suhbatdoshlar davrasida ishlatib, *begim, jonim, azizim* kabi murojaat shakllarini o'zaro suhbatda, faqat er-xotin o'rtasidagina qo'llaydi.

Erkak jinsiga qaratilgan murojaat shakllarini quyidagi mavzuiy guruhlariga bo'lish mumkin:

- Chaqirish: - *birodar, ukam, o'rtoq, oshna, do'stim, og'ayni*.
- Mensimaslik, kinoya: - *kuyov to'ra, er, erkak, qariya*.
- Iltimos: - *azamat, toychoq, yaxshi yigit*.
- Yalinish: - *oka, okaxon, ukaxon*.
- Neytral shakllar: - *kuyovjo'ra, boshqon, marhum, xodim, rahbar*.

Ayol kishi erkakka nisbatan murojaatning mavhum shaklidan foydalanishi kuzatiladi: - *Turing, hoy, turing, qudalaringiz kelishdi* (III kitob, 94-b.); - *Siz... o'shami?! (I kitob, 226-b.)* kabi.

Erkakning erkakka murojaati uning qayerda va kimga murojaat qilishiga qarab turli mazmuniy maydonlarni qamrab oladi: *oshiq, g'anim, “hazrati Azroil”, “Choqsunla”, a'yon, mahbus, alloma-yu donishmand, jo'raboshi, o'rtoq professor, ablah* kabi.

Oilada erkakning o'z ayoliga murojaati jarayonida ishlatiluvchi birliklarni “Shaytanat” asari qahramonlari misolida tahlil qilar ekanmiz, ularning naqadar boy manba bo'lib xizmat qilishini alohida ta'kidlashimiz o'rinli bo'ladi.

Ayolga o'z ismi orqali yoki shunchaki murojaat qilishda subyektning obyektga nisbatan quyidagi munosabati kuzatiladi:

- Chaqirish: - *Manzura, Nasib, Zaynabxon, Noilam, ayasi, onasi, oyijonisi.*
- Erkalash: - *Jonim, jonidan, azizam, malikam, asalim, go'zalim* kabi murojaat birliklarini qo'llash erkakning ayolga nisbatan yaqinligini, ijobiy emotsional munosabatini ifodalaydi.
- Mensimaslik, kinoya: - *Katta xolamning eri, ammamning buzog'i, ayol zoti, noshud, tovuqmiya* kabi shakllar kinoya ma'nosida ishlatiladi.

Ayol semasini ifodalovchi leksik birliklar bilan birga qo'llanuvchi sifatlovchilarni kuzatar ekanmiz, bu birliklarda murojaat etilayotgan ayol nisbatan so'zlovchining munosabati yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, *yostiqdosh, rafiqqa, xotin, jonon* kabi lug'aviy birliklarda ayolga bo'lgan munosabat jufti halolidan tortib, boshqacha mazmundagi murojaatni ham ko'rishimiz mumkin.

Ushbu matnlarda belgi-xususiyat bildiruvchi leksemalar jinsni nomlovchi *xotin* leksemasi bilan birikma hosil qilgan. Chunki ayol doim erkak jinsiga nisbatan past pog'onada turgan, ayolga nisbatan "*sochi uzun, aqli kalta*", "*kalta o'ylaydigan*" frazeologik birliklar doim umumiy jinsga tegishli xarakterlovchi belgi sifatida oddiy so'zlashuvda ham, badiiy matnda ham aks etib kelgan.

Ayolga otasi ismini qo'shib aytish yoki xo'jayin deb murojaat qilish uning oiladagi mavqeyining birmuncha yuqoriligini, shuningdek, hurmatga sazovorligini bildiradi.

Ayolga murojaat jarayonida murojaatning erkaklar tomonidan tabulanishi asarda juda kam uchraydi. Bunda erkak ayolga uning ismi, laqabi, taxallusi, belgi-xususiyatiga aloqador bo'lmagan turli shakliy ifodalardan foydalanadi: - *Tur, eshikni zanjirlab kel. – Keldingmi, hoy, senga aytayapman* kabi.

"Shaytanat" qahramonlari ayolga nisbatan murojaat qilganlarida juda ko'p hollarda "*hoy, ey, o'v, hay*" kabi abstrakt birliklarni qo'llaydilar.

Oilada nisbatan yaqin bo'lmagan qarindoshlik munosabatidagi shaxs nomlariga quyidagilar kiradi: *xola, amma, amaki, tog'a, tog'avachcha, amakivachcha, o'gay ona, o'gay o'g'il, nabira, nevara, kuyov, kelin, mullaka, qaynog'a* kabi.

Nominativ vazifa bajaruvchi laqab va taxalluslarni quyidagi mavzuiy guruhlariga ajratdik:

- Kasb-korga oid nomlar: *hofiz, tergovchi, muallim, dehqon, qassob, boshqon, tabibboshi, o'g'ri, etuk mutaxassis, kenja shogird, militsioner, qorovul.*
- Ijtimoiy mavqedan kelib chiqib qo'yilgan hammda unvonga oid nomlar: *qori, so'fi, hojibuva, leytenant, kapitan, bek, mijoz, olim, rais buva, boyvachcha.*
- Laqab va taxalluslar: *Kesakpolvon, Chuvrindi, otarchi, "o'qilon", akademik, Shilimshiq, "xalq otasi", deputat, "xunasa", qishloqi, "bola", "qiyshiq", "Bo'tqa".*

Asar mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda bularga ko'plab misollar keltirishimiz mumkin: *Videobar og'asi ko'zlari televizorda, xayoli ... – vino zavodi boshqoni Qilich Sulaymonovda edi* (I kitob, 63-b.); *O'zing do'xtir bo'lib olib, gerdayi-ib yuribsan. Yetti yot begona bolalarni olim qilib yubording* (I kitob, 147-b.); *Garchi asl ismi Orzubek bo'lsa-da, Asadbeklarning davrasida oddiygina qilib "deputat" deb yuritilardi* (II kitob, 166-b.); *Endi "Direktor bova, konfet bering" – denglar", derdi* (II kitob, 176-b.) kabi. Misollardan ko'rinib turibdiki, bunday shakllar asosan dialogik nutqda, ya'ni, asar qahramon nutqida ko'plab uchraydi.

Erkaklarni *hayvon* yoki *o'simlikka* qiyoslashga xos bo'lgan leksik birliklar talaygina: *Asadbek – yaralangan yo'lbars holidagi odam – kim o'q uzganini endi bildi* (I kitob, 191-b.); *Asadbek ko'pincha uni "boqib olgan yetim toylog'im" deb mazax qilardi* (II kitob, 166-b.); *Bo'lishi mumkin, - dedi Hamdam. – Lekin bu ikki galvarsdan gap olaman deb ovora bo'lma* (I kitob, 47-b.); *Bekor aytibsan, itvachcha! – dedi Elchin xirillab* (I kitob, 182-b.).

Asarda bunday usulda hosil qilingan laqab va turli “nomlar” asosan erkak jinsiga mansub qahramonlarga nisbatan ishlatiladi. Lekin ayol jinsiga mansub shaxslarning laqab va turlicha taxalluslar bilan atalishi ko`p uchramaydi. Bunday holatda ayolning ijtimoiy mavqeyi shuni so`zlovchi personajga nisbatan past ekanligini anglatadi, bu, odatda, erkaklar tomonidan amalga oshiriladi. Masalan, - *he, ojiza, xayf senga, - deb ko`zlaridan g`azab uchqunlarini sochdi* (I kitob, 56-b.); *Men mish-mish orqalab yuradigan xotinmasman – dedi Jalil* (I kitob, 116-b); *Jamshid buni tushunib darrov xipchabellarga imo qildi* (I kitob, 219-b).

Asardan to`plangan misollar shuni ko`rsatadiki, erkaklarga xoslangan murojaat shakllari ayollarga xoslangan murojaat shakllariga nisbatan anchayin keng va miqdor jihatdan ko`pligi bilan ajralib turadi.

Bob bo'yicha xulosalar

II bobni bayon qilish orqali biz quyidagi xulosalarga keldik:

1. O'zbek tilining boy imkoniyatlari insonga qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan shaxslarni turli nomlar bilan atash uchun keng ko'lamli manba bo'lib xizmat qiladi. Bunday nomlarda maskulinlik va feminlik belgilari yaqqol namoyon bo'ladi.

2. Erkak kishiga nisbatan qo'llanuvchi nomlar orasida ota semasini ifodalovchi leksik birliklar, ayniqsa, alohida e'tirof etiladi.

3. O'zbek oilasida, odatda, ayol o'z eriga ismi orqali juda kam hollarda murojaat qiladi. Boisi, ayolning o'z eriga bo'lgan cheksiz hurmati, qadrlashi, shu bilan birga faqat sharq ayollarigagina xos bo'lgan nafaqat o'z turmush o'rtog'iga, balki oilaning boshqa a'zolariga ham andisha, xijolat yoki uyalish kabi tuyg'ularning ustunligidandir. Shu sababli xotin o'z eriga *odam, bu kishi, aka* (ismiga qo'shib), *begim, jonim, azizim* kabi murojaat shakllarini qo'llaydi. *Odam, bu kishi, aka* kabi leksik murojaatlarni, odatda, suhbatdoshlar davrasida ishlatib, *begim, jonim, azizim* kabi murojaat shakllarini o'zaro suhbatda, faqat er-xotin o'rtasidagina qo'llaydi.

4. Ayol semasini ifodalovchi leksik birliklar bilan birga qo'llanuvchi sifatlovchilarni kuzatar ekanmiz, bu birliklarda murojaat etilayotgan ayolga nisbatan so'zlovchining munosabati yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, *yostiqdosh, rafiqqa, xotin, jonon* kabi lug'aviy birliklarda ayolga bo'lgan munosabat jufti halolidan tortib, boshqacha mazmundagi murojaatni ham ko'rishimiz mumkin.

5. Erkaklar o'zaro salomlashganda, ko'rishganda yoki xayrlashganda ularning nutq odobida bu ishni alohida lutf-u nazokat bilan amalga oshirishga ishtiyoqning yo'qligi erkaklar salomlashishidagi o'ziga xoslikni belgilaydi.

6. Erkak kishi muayyan xursandchilik vaziyatida hayajon tufayli erkaklarga xos qat'iyatlilikni biroz bo'lsa-da, yumshatishi hamda uning xatti-harakatlarida erkaklarga xos nazokat va samimiylik o'zgacha holatda namoyon bo'lishi mumkin.

7. O'zbek xalqi nutq odatida alohida olingan marosimlarda erkaklarning vazifalari, xatti-harakatlari hamda ayollarning vazifalari va har bir xatti-harakatlari izchillik bilan ishlab chiqilgan. Shunday ekan, har bir jins vakillari o'z xoslik doirasidan chiqib ketmaydi.

8. Neytral vaziyatlarda erkaklarga ham, ayollarga ham birdek xos bo'lgan, yoki boshqacha qilib aytganda, jinsga ajratilmaydigan alohida nutqiy birliklarning talaygina ekanligini qayd qilamiz.

9. Asarda insonni tashqi ko'rinishi orqali jinsda farqlovchi bir qator nutqiy birliklar, formulalar mavjud. Muhim ahamiyatga ega bo'lgan gender stereotiplar tizimiga qahramonning nutqi, ismi, laqabi yoki shaxsini ifodalovchi belgilar kiradi. Ammo bevosita ismini o'qimasdan yoki bilmasdan ham qahramonning ayol yoki erkak ekanligini anglatuvchi tashqi belgilar mavjudligi ma'lum. Bunday tashqi belgilarga yuz tuzilishi, ifodasi, qad-qomat, tana a'zolari tuzilishi, ovoz va kiyim-kechak kabi omillarni kiritish mumkin.

10. Erkak kishiga xoslikni bildiruvchi asosiy tashqi belgi-xususiyatlarga gavdaning ayolnikiga nisbatan yirik bo'lishi, yelkalarning keng bo'lishi, oyoq-qo'lning baquvvat va uzun bo'lishi, yuz tuzilishi ayolnikidan tubdan farq qilishi, asosan, soqol-mo'ylovning mavjudligidir. Bundan tashqari, faqat erkaklargagina xos bo'lgan xarakter xususiyati hamda muayyan xatti-harakatlar erkaklikning bosh va muhim ifodasi sifatida adib tomonidan qahramonlar tasvirida qo'llaniladi. Ana shu o'ziga xosliklar erkaklarga xos bo'lgan gender stereotiplarlarni tashkil qiladi.

11. Adib ayol obrazini tasvirlashda nozik va sarvqomat, jozibador va latofatli, qosh-ko'zlarida erkakni sehrlab qo'yishga qodir kuch yoki jodusi bor, g'uncha dudog' va qirmizi yanoq, mayin va shirali ovoz sohibasi degan go'zal ta'riflardan foydalanadi. Ana shu belgi va ta'riflar bevosita ayollarga xos bo'lgan gender stereotiplarni shakllantiradi.

III BOB. T. MALIKNING “SHAYTANAT” ASARIDAGI LEKSIK HAMDA GRAMMATIK VOSITALARNING GENDER TADQIQI

Badiiy matn mohiyatini to'liq ochib berish uchun uning leksik, morfemik hamda grammatik xususiyatlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

3.1. Asardagi leksik vositalarning gender tadqiqi

Biz “Shaytanat” qissasini badiiy matnning eng yuqori namunasi, deb ta’kidlashga asoslarimiz yetarli. Chunki mukammal badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida uning tilidagi leksik birliklarni leksikologiya qonun-qoidalariga monand ravishda ma’nodosh soʻzlar, shakldosh soʻzlar, zid ma’noli soʻzlar, ko’p ma’noli soʻzlar, tarixiy va arxaik soʻzlar, yangi yasalmalar, shevaga oid soʻzlar, chet va vulgar soʻzlar ajratib olinadi va asarda qanday maqsadga yo’naltirilganligi izohlanadi. Biz “Shaytanat”da eng ko’p uchraydigan leksik birliklarni shu guruhlar bo’yicha ajratamiz va asarda o’ziga xos vazifa bajarganini dalillashga harakat qilamiz.

Ma’nodosh soʻzlar. Ma’nodosh soʻzlar tilning lugʻaviy jihatdan boylik darajasini ko’rsatib beruvchi o’ziga xos vositadir. Tilda ma’nodosh soʻzlarning ko’p bo’lishi tilning estetik vazifasini yana-da to’liq bajara olishini osonlashtiradi. O’zbek tili ma’nodosh soʻzlarga juda boy. Adib tilimizdagi ma’nodosh soʻzlar ichidan tasvir maqsadiga eng munosibini topib ular orqali qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha ifodalashga harakat qiladi. Tilshunoslikda ma’nodoshlikning uch turi farqlanadi: 1) leksik ma’nodoshlik; 2) frazeologik ma’nodoshlik; 3) leksik-frazeologik ma’nodoshlik.

Leksik ma’nodoshlikdan bir necha maqsadlarda foydalaniladi. T.Malik qalamining o’tkiriligiga sabab shundaki, u badiiy tasvir ehtiyojiga ko’ra ma’nodosh bo’lmagan soʻzlarni ham shunday qo’llaydiki, bu soʻzlar qissada xuddi ma’nodosh soʻzlar kabi idrok etiladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, matnda juda ko’plab salbiy ma’no ottenkasiga ega soʻzlar qo’llanib, ularning sinonimik qatori kengaytirilishiga muvaffaq bo’lishga erishgan. Masalan: *Bunaqa mayda ishlarni bajaruvchi mayda odamlarimiz yetarli, - Said Qodirov shunday deb ayyorona ko’z*

qisib qo'ydi (V kitob, 294-b.); *-Yur, dedi Kesakpolvon G'ilayga, - bir narsa deb qo'y.* (III kitob, 142- b.) Misollarda “*ko'z qismoq*”, “*bir narsa deb qo'yish*” leksik birliklarida erkaklikni ifodalovchi ma'no qirralarini ko'rish mumkin.

Frazeologik ma'nodoshlik. Voqelikni obrazli tasvirlashda, aniq va to'la gavdalantirishda frazeologik iboralarning ma'nodoshligidan keng foydalaniladi. Masalan, “*Osonlik bilan jon beradigan axmoq yo'q!*” (III kitob, 143-b.); “*Men nima uchun yashadim-u, nima maqsadda bu chirkin barglarni to'pladim*” (V kitob, 295-b.)

Leksik-frazeologik ma'nodoshlik. Lug'aviy birlik sifatida frazeologizmlar so'zlar bilan ham sinonimik munosabatda bo'la oladi. Masalan, *Mahmud akamning seyflari buzilib qolganida ochib bergan edi. Qo'li gul usta. - Bunaqa qo'li gullarning xaridorlari serob bo'ladi* (V kitob, 131-b.); *Bu yerga bosh egib kelishga majbur etgan Anvarni so'kdi* (II kitob, 178-b.). Matnda “*qo'li gul*”, “*xaridor*” hamda “*bosh egib*” kabi ma'nodosh so'zlar qo'llanilgan.

Shakldosh so'zlar. Tilimizda tovush (yozuvda grafik) tomoni bir xil bo'lib, turlicha ma'nolarni ifodalovchi so'zlar mavjud. Bunday so'zlar omonimlar deb ataladi. Tilshunoslikda omonimiyaning uch ko'rinishi mavjudligi ta'kidlanadi: Omoleksema, omograf va omofonlar. Shakldosh so'zlar asosida yuzaga keladigan ohangdoshlikdan badiiy asarda alohida uslubiy vosita sifatida foydalaniladi. Masalan, *Omil to'nka ham tanishtirib qo'ymadi* (II kitob, 178-b.). Ushbu gapda “*to'nka*” shakldosh so'zi gapdan anglashiluvchi ma'noga o'ziga xos vazifa yuklaydi.

Zid ma'noli so'zlar. Tilda zid ma'noli so'zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashda qulay vositalardan biridir. Sharq adabiyotida juda qadim zamonlardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan. Misol uchun, “*Shaytanat*”da quyidagicha zid ma'noli so'zlarni uchratamiz: *Bu qanday tosh – gunohlar toshimi yoki mas'uliyatmi, bilmadi* (III kitob, 187-b.). Matnda qo'llangan “*gunohlar toshi*” va “*mas'uliyat*” so'zlari o'zaro ma'no jihatdan zid so'zlar qatorini tashkil qilmasa-da, adib ularni ayni shu matnda tergovchining tilidan zid ma'noli juftlikka aylantira

olgan. Yana bir misol keltiramiz. Matnda kontekstual antonimlar berilgani uchun bir abzasni to'liq berishga qaror qildik: *“Zaynab shu hovlida Kumush bo'lib yashagan edi, xayolidagi Otabegi uni shu hovlida quchgan, yanog'idan bo'sa olgan edi... Endi nazarida bu hovlidan nur qochgan, g'unchalari to'lib erta-indin ko'z ochaman deb turgan atirgullar ham xunuk, marmar favvora ham o'lik... Quyosh bor-u, fayz yo'q, xonadon qorong'u. Xonalarda hayot kezib yuribdi, ammo baxt yo'q”* (I kitob, 350-b.). Mazkur parchada keltirilgan *“Zaynab”* va *“Kumush”*, *“atirgul”* va *“xunuk”*, *“favvora”* va *“o'lik”*, *“quyosh”* va *“qorong'u”*, *“hayot”* va *“baxt yo'q”* kabi lug'aviy birliklar mahorat bilan zidlikni hosil qilishiga erishilgan.

Hozirgi kunda uchramaydigan, faqat tarixiy narsa yoki voqea-hodisalarning nomini bildiruvchi so'zlar istorizm (tarixiy so'zlar) deyiladi. Istorizmning arxaizmdan farqi shundaki, bugungi kunda o'sha tarixiy voqelikning o'zi ham, uni anglatuvchi boshqa leksik birlik ham bo'lmaydi, demak istorizm o'zi ifodalayotgan hodisaning yagona nomidir. Masalan: amin, mingboshi, noyib, mirza, ellikboshi kabilar badiiy matnda ishlatilganda kitobxon ijtimoiy boshqaruv tizimi bilan bog'liq tarixiy voqelikni ko'z oldiga keltiradi. T.Malik *“Shaytanat”* qissasida o'zbek xalqining mustaqillik uchun kurashga qaratilgan milliy ozodlik harakati voqealari haqida ham bayon qiladi, bunda u tarixiy so'zlardan o'tmish voqeligini real tasvirlash maqsadida ishlatadi: *“Turkiston kerakkim muxtoriyat bo'lsun, muhokama shariyalar barpo bo'lsun. ... Ammo mullalar syezdi Turkistondan askar olinmoqg'a qaror beribdur, deb ilmodan balki ba'zilar norozi bo'lur deb boshqa syezdga muquf qo'yildi”* (I kitob, 208-b.).

Sheva so'zlari. Yozuvchi o'z qahramonlarini o'zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so'zlarni ishlatadi. Sheva so'zlari mahalliy kolorit, hududiy mansublikni o'zida aniq aks ettirish bilan birga «badiiy nutqda muayyan estetik vazifani ham bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qimmat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi me'yori, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qo'llanishi bilan bog'liqdir. T.Malik o'zining besh kitobdan

iborat qissasida asosan Toshkent shahri, qisman Farg'ona vodiysi kabi hududlarning shevalaridan unumli foydalanadi. Bundan tashqari asarda Germaniyada yashab yurgan turkiylar ham eski o'zbek va turk tillarini aralashtirib ishlatishini adib mahorat bilan ko'rsatib beradi. Masalan, *Cho'x go'zal falsafa so'ylading, gardash. Xatar ham, o'lim ham bizlarga hamroh o'lur* (V kitob, 131-b.); - *Rahmat, kennoyi, chang-pangini qoqib olay, - Anvar shunday deb boshini qog'ozdan ko'tarib yangasi yonidagi uzun bo'lyi yigitchani ko'rdi* (I kitob, 208-b.); *Endi skuchat qilsangiz o'ziyz borib ko'rasiz* (IV kitob, 158-b.). Matnda qo'llangan "kennoyi" so'zi Toshkent shevasida "kelin oyi", ya'ni, akasining xotiniga nisbatan qo'llanuvchi murojaat shaklidir.

Tilshunoslikda vulgarizmlar va varvarizmlar deb ataluvchi qo'pol yoki yot so'zlarda o'ta salbiy munosabat, kamsitish, mensimaslik, haqorat kabi bir qator ifoda semalari juda ochiq ko'rinib turgan bo'ladi. Bunday so'zlar ko'proq nominativ ma'nolariga ko'ra emas, ayni shu konnotativ ma'nolariga ko'ra nutqda yashaydi. Haqorat so'zlari asarda asosan, qahramonlar nutqida ishlatiladi. Lisoniy tahlil jarayonida badiiy asarga olib kirilgan vulgarizmlarni kimning (jinsi, ijtimoiy tabaqasi, mavqeyi, yoshi kabilari) nutqida ishlatilayotganligiga qarab guruhlash, qanday vaziyatlarda va nima sababdan qo'llanilayotganligini hamda ularning leksik-semantik tarkibi, shevaga xoslanganligi kabilarni aniqlash lozim bo'ladi. Ma'lumki, jamiyatning o'ziga xos qatlami bo'lmish qimorbozlar, o'g'rilar, fohishalar hamda qonun himoyachilari, qolaversa, shu kabi ijtimoiy tabaqaga mansub odamlar bilan munosabatga kirishuvchi boshqa insonlar nutqida shunday so'zlarning iste'molda bo'lishi kuzatiladi. Asar ayni shu mavzuga bag'ishlangani uchun ham bunday qo'pol, haqoratli va salbiy ma'no bo'yoqdorligiga ega so'zlar ko'plab uchraydi: *bratan, dux, so'tak, ablah, hezalak, xunasa, bezbet* kabi. – *Hovliqma, e galvars, buningni qo'rqitishgan. Bu hezalak bitta gapga laqqa tushgan* (II kitob, 20-b.); - *Mersi, papul, - qizi shunday deb erkalanganicha o'pdi-da, quvnoqlik bilan iziga qaytdi.* (IV kitob, 158-b.); - *Postoronniy odamni oldida prosto unijat qilib yuborasiz* (IV kitob, 158-b.); *Uning ishini uncha-muncha qanjiq eplolmaydi* (II kitob, 377-b.).

Barqaror birikmalar. «Ikki va undan ortiq soʻzlarning oʻzaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud boʻlgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi. Iboralar, maqol-matallar va hikmatli soʻzlar barqaror birikmalar hisoblanadi. Misol uchun, “*Ostona – muqaddas chegara*” (I kitob, 225-b.); “*Hikmat – baliq, qoʻlda ushlab turish mumkin emas*” (II kitob, 181-b.).

Iboralar. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon koʻzi oʻngida aniq va toʻla gavdalandirishda frazeologik iboralarining oʻrni, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat-holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning oʻziga xos obrazli ifodalaridir. Yozuvchi, odatda, tasvir maqsadiga muvofiq iboralarini tanlab qoʻllash bilangina kifoyalanib qolmaydir, balki qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab oʻzgartiradi va qayta ishlaydi. Bunda yozuvchining imkoniyat sifatida mavjud boʻlgan til birliklaridan foydalanish mahorati ham namoyon boʻladi. Misol tariqasida: *Paygʻambarimiz alayhissalom “oʻlmasdan burun oʻlinglar”, deb marhamat qilganlar* (V kitob, 434-b.).

Maqol - matal va hikmatli soʻzlar. Maqollar - grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, kichik, ixcham, oʻtkir mazmunli, koʻchma maʼnoda yoki ham koʻchma maʼnoda, ham oʻz maʼnosida qoʻllanadigan hikmatli xalq iboralaridir. Maqollarda fikrni loʻnda va tiniq ifodalash imkoniyatining mavjudligi nutqning taʼsirchanligini taʼminlashda juda qoʻl keladi. Badiiy matnning xalqchilligini, haqqoniyligini taʼminlashda ham maqollarga murojaat qilinadi. Qahramonlar nutqini boyitish, emotsional-ekspressivlikka erishish maqsadida ham maqollardan keng foydalaniladi. Hikmatli soʻzlar maʼlum shaxslar tomonidan aytilgan yoki asarlarida ishlatilgan ixcham, maʼnodor, ishlatishga qulay va quyma fikrlardir. Nutqqa tayyor holda olib kirish imkoniyatiga ega boʻlgan bunday soʻzlar aforizmlar ham deyiladi. Tilshunoslikda maqol-matal va hikmatli soʻzlar «paremalar» deb ham yuritiladi. Misol keltiradigan boʻlsak, *Vatan – yaʼni ona*

yurtni sogʻinish darajalarini belgilamoqda “musofir boʻlmaguncha musulmon boʻlmas”, degan hikmatni hisobga olmoq balki joizdir (IV kitob, 8-b.).

Agnonimlar. Agnonim atamasi yunon tilidan olingan boʻlib, bilinmagan, tushunarsiz, nomaʼlum nom degan maʼnoni bildiradi. Muayyan tilda muloqot qiluvchilar uchun oʻsha tildagi nomaʼlum, notanish, tushunarsiz yoki kam tushunarli boʻlgan soʻzlar agnonimlar degan nom bilan umumlashtiriladi. Agnonimlar lingvosentrik emas, balki antroposentrik hodisa hisoblanadi. Yaʼni, buni tildan foydalanuvchining lisoniy layoqati bilan bogʻliq hodisa deb qabul qilish mumkin. Bunday agnonimlarni asar matnida koʻplab uchratish mumkin. Asosan, oʻgʻirlik va qimorbozlik, giyohvandlik va noqonuniy olamga ilk bor duch kelgan qahramonlar nutqida kuzatiladi.

Biz “Shaytanat” qissasida qoʻllanilgan leksik birliklarning tahliliga toʻxtalar ekanmiz, ularning badiiy asar matnida lisoniy, kommunikativ, akkumulativ hamda estetik vazifalarni bajarishini alohida taʼkidlaymiz. Adib tomonidan qoʻllangan lugʻaviy birliklar qahramonlar dunyoqarashini aks ettirish, ularning nutqini individuallashtirish hamda illustrativ funksiya bajarish kabilar bilan bir qatorda ular nutqidagi jinsga mansublik, yaʼni maskulinlik va feminlikni aks ettirishini kuzatishimiz mumkin.

3.2. Asardagi morfemik va morfologik vositalarning gender tadqiqi

O'zbek tilida yaratilgan badiiy asarlar ichida "Shaytanat" til boyliklarini namoyon etishda serqirraligi, lisoniy qurilmalar rang-barangligi hamda leksik va grammatik vositalarning qo'llanishidagi o'ziga xoslik bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Biz asar tilidagi gender xossalarni o'rganar ekanmiz, ularning, hatto, morfemik vositalar miqyosida ham uchrashi adib mahoratidan dalolatdir.

Badiiy matnda morfologik birliklarning estetik vazifasi deganda «maxsus so'z formalari vositasida, shuningdek ma'lum bir grammatik ma'no va funksiyaga ega bo'lgan so'z formasini maxsus qo'llash orqali ekspressivlik – emotsionallik ifodalanishi tushuniladi. Ekspressivlik ijobiy va salbiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlarda aniq ko'rinib turadi. Badiiy matn lisoniy jihatdan tekshirilganda dastavval ana shunday ma'no qirralariga ega bo'lgan birliklarni ajratish va qaysi turkumga xosligi, kimning nutqida, nima maqsad bilan qo'llanilganligi, kimga nisbatan, qanday vaziyatda ishlatilganligiga e'tiborni qaratish lozim. Odatda, erkalash – suyish, hurmat – e'zozlash, ko'tarinkilik, ulug'vorlik, tantanavorlik kabi ma'nolarni bildiruvchi so'zlar ijobiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlar hisoblanadi. Salbiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlar sirasiga jirkanish, manmanlik, mensimaslik, kibrilik, masxara, nafrat, g'azab, kinoya, kesatiq kabi subyektiv munosabatni ifodalovchi so'zlar kiradi. Bunday ma'nolarni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash va baholash lisoniy tahlilning asosini tashkil qiladi. Ma'lumki, o'zbek tilida kichraytirish shakli *–cha*, *–choq*, *–chak* qo'shimchalari bilan; erkalash shakli *–jon*, *–xon*, *–oy*, *–(a)loq* affikslari yordamida hosil qilinadi. Hurmat, mensimaslik, istehzo, umumlashtirish, tur-jinsga ajratish kabi ma'nolar *–lar* affiksi bilan hosil qilinadi. *–gina* qo'shimchasi chegara, erkalash, yaqinlik ma'nolarini yuzaga chiqaradi. Misol uchun: - *Voy, ovorasi bormi? Siz har kuni kelib yuribsizmi? Kecha nevaracham bir yoshga to'ldi. Shuning uchun hamma yig'ilgan edi.* (I kitob, 112-b.) Asar qahramoni Qamaraning (Asadbekning bolalikdagi do'sti Jalilning xotini) nutqidan

keltirilgan misolda u o'zbek tilida kichraytish-erkalash qo'shimchasi –*chani* “nevara” so'ziga qo'shib, o'ziga xos shakl hosil qilgan.

Tahlil jarayonida matnda qo'llanilgan barcha morfologik birliklar emas, estetik maqsad aniq ko'rinib turadigan, yozuvchining badiiy niyati ifodalangan morfologik o'zgachaliklar haqida so'z yuritiladi. Masalan, eng ko'p ishlatiladigan badiiy tasvir vositalaridan biri takrordir. Morfologik birliklarning takrorlanishidan yuzaga keladigan uslubiy vosita – morfologik parallelizmning qo'llanilish maqsadi lisoniy jihatdan tadqiq etilishi mumkin. Morfologik parallelizm deb «nutq parchasida mustaqil leksik ma'noga ega bo'lmagan so'zlar, grammatik vositalarning qayta qo'llanish usuli. Bu o'rinda bir sintaktik qurilma doirasida parallel qo'llanuvchi yordamchi so'zlar, forma yasovchi qo'shimchalarning aynan takrorlanishi nazarda tutiladi. Morfologik birliklarning alohida estetik maqsad bilan asarda parallel ravishda qo'llanilishi ko'p kuzatiladi. Masalan, – *Samandar ... o'ldimi? – dedi Jalil Asadning yengidan tortib. “Samandar o'ldi?!” “Samandar o'ldi...” Bu gap Asadning miyasiga to'qmoqdek urilib, tovonigacha zirillatib yubordi. Biroz nest bo'lib turdi-da, keyin uyga otilib kirdi. Asad ota o'rnida ota bo'lib ukasini so'nggi makonga qo'yib keldi. Qo'ni-qo'shnilar uni katta odamday ko'rib, ta'ziya izhor etishdi.* (I kitob, 172-173-b.)

Badiiy asarda qo'llanilgan morfologik parallelizm yoki har qanday tasviriy-ifodaviy vositani qayd etish yoki mavjudligini ta'kidlashning o'zi yetarli bo'lmaydi. Asl maqsad shu tarzda tasviriy vositalar yoki badiiy san'atlar yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrni qay darajada ravon, qulay, jozibador yoxud san'atkorona ifodalashiga xizmat qilganini aniqlashga qaratilishi lozim. Masalan, Toshkent shevasida so'zlayotgan ayol “borvommiza, devommiza” deb aytsa, erkaklar nutqida “borvommiz, devommiz” shaklidagi farqni ko'rishimiz mumkin.

Badiiy tasvir vositalari o'z nomi bilan badiiyatga xizmat qiluvchi vositalardir. Ular orqali biron bir jinsga oidlikni bilib olish ham mumkin. Bunday ifodalanish, ya'ni o'z nutqida badiiy tasvir vositalaridan ayollar erkaklarga nisbatan kengroq foydalanishlari ma'lum bo'ladi. Masalan, “*Yuki yengillar najot topadi, gunohi og'irlar do'zaxga tushadi*”, deb menga sal yon bosganday bo'ldi. ...

Ko`kshapka toifasidagilarga janoza o`qilmamasa, unga o`xshagan fosiqlarning ko`zi ochilardi. (V kitob, 417-b.)

Ot soʻz turkumining koʻplik, egalik, kelishik kategoriyalari va subyektiv baho shakllarining oʻziga xos imkoniyatlarini tahlilga tortish ham lingvopoetikaning muhim masalalaridan hisoblanadi. Tegishli adabiyotlarda mazkur qoʻshimchaning hurmat, kinoya, piching, noaniqlik, kuchaytirish, takrorlash, taʼkidlash kabi maʼnolarni ifodalashda ishlatilishi aniq misollar bilan asoslab berilgan. Koʻplik shakli qoʻshimchasining qahramonlar ruhiyatidagi turfa tovlanishlarni tugal aks ettirish imkoniyati boshqa qoʻshimchalarga qaraganda aniq koʻzga tashlanib turadi. Masalan, - *Mabodo, tosh yog`ib qolsa, uyg`otarsan, - dedi Atxam piching bilan. – Uyg`otarsan emas, uyg`otarsiz, deng, - dedi “uyg`otarsiz”ning oxirgi bo`g`iniga urg`u berib* (V kitob, 514-b.); *Prosto silaga skuchno bo`lmasin deb kelamiza* (IV kitob, 158-b.); *Biza ko`chada qomaganmiza* (IV kitob, 158-b.); - *Voy, aylanay sizdan, egachi, tanimabmiza* (I kitob, 204-b.). Keltirilgan misollarda otning I shaxs koʻplik shakli Toshkent shevasida ayollar nutqida –*miz* emas, balki –*miza* shaklida qoʻllanilganligini koʻramiz. Bunday holat erkaklar nutqida uchramaydi.

Egalik shakli ham sof egalik, qarashlilik maʼnosidan tashqari erkalatish, koyish, nolish, tinchlantirish, achinish, kinoya, kesatiq, faxrlanish, kibr, kamtarlik kabi modal maʼnolarni ifodalashga xizmat qilishi mumkin. Misol tariqasida *Noilam, Jamshid akam, opovsi, buviginasining toychog`i, o`zlarimi* kabi birliklarda kelgan egalik shakllarini keltirish mumkin.

Sifat soʻz turkumi lisoniy vosita sifatida ham katta ahamiyatga ega. U badiiy asar tilida eng koʻp uchraydigan epitetlar hosil qilishda qoʻllaniladi. Shuningdek, sifat soʻz turkumidagi sinonimiya, sifat darajasini hosil qiluvchi shakllar hamda sifat yasovchi qoʻshimchalar orqali ham badiiy-estetik effekt hosil qilinadi. Masalan, *Agar tug`mas xotinlar delegatsiyasi chet elga boradigan bo`lsa ham bu odam ro`yxatning boshida turardi* (I kitob, 13-b.); *“Izlab ovora bo`lma”, deganlar u uchun ojiz maxluqqa aylanardi* (I kitob, 50-b.); -*Pul olmaydigan qaysar eshshakku, u?* (I kitob, 69-b.); *Kap-katta erkak odamning so`yishga mahkum etilgan*

buqaday o'kirishi, so'ng tul xotinday piqillab yig'lashi (I kitob, 104-b.); *Agar Sharif hozir tiz cho'ksa, faqirga lozim bo'lgan ishlarni bajarsa, bu "ko'ngli bo'sh"* *azamat yigit yo'q demasdi* (I kitob, 105-b.); *Onasi – ellik yoshlarga borgan, faqat bu dunyo bilan emas, balki go'zalligi bilan ham xayrlashishga shoshilmayotgan qo'hlikkina ayol edi* (I kitob, 185-b.). Misollardan ko'rinib turibdiki, “ojiz”, “qaysar eshshak”, “buqaday”, “azamat” kabi lug'aviy birliklarda maskulinlik xususiyati kuchli bo'lib, bu sifatlar, albatta, erkak kishiga nisbatan qo'llaniladi. “Tug'mas”, “tul”, “qo'hlikkina” kabi lug'aviy birliklarda esa femininlik xossalari mavjud bo'lib, ular matnda ayollarga nisbatan ishlatiladi.

Sonlar, aslida, gapdagi muayyan miqdorga aniqlik kiritish uchun ishlatiladi. Lekin, mavhumlik yoki me'yordan ortiqlik ma'nolarini urg'ulash uchun qo'llanilganligini ham kuzatishimiz mumkin. Ammo, shuni ta'kidlashimiz joizki, “Shaytanat” asarida son so'z turkumiga mansub so'zlarning gender jihatdan xoslanishini kuzatmadik.

Badiiy matnning ekspressivligini ta'minlashda olmoshlarning ham alohida o'rni bor. Olmoshlar bir so'zning takrorlanishi bilan yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan g'alizlikning oldini oladi. Olmoshlarning takrorlanishi esa nutqqa o'ziga xos ohangdorlik bag'ishlash bilan birga matnni shakllantirishga xizmat qiladi. T.Malik o'z asarida erkaklarni bosh qahramon sifatida birinchi planga olib chiqqani sababli, asosan, erkaklar nutqida “men”, “biz”, “kamina”, “o'zlari” kabi olmoshlarning keng qo'llanilganligini va, albatta, ularda o'ziga xos maskulinlik xususiyatlari sezilishini ko'rishimiz mumkin.

Badiiy matnning lingvistik tahlili jarayonida fe'l turkumiga kiruvchi so'zlarga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki, bu turkumdagi so'zlarning ekspressiv imkoniyatlari benihoya kengdir. Fe'lning mayl, shaxs-son, bo'lishli-bo'lishsizlik, nisbat, zamon hamda funksional shakllari asosida namoyon bo'luvchi o'ziga xosliklarni o'rganish maqsadga muvofiqdir. Matnda fe'llar maskulinlik yoki femininlik xususiyatlarini aks ettirishini misollar orqali ko'rib chiqamiz: *Bu gapni eshitib Anvar "shu odam ota bo'lgan xalqning padariga la'nat!" dedi* (I kitob, 13-b.); *Umrini maqtov eshitish-u chiroyli qiz-juvonlar bilan*

aysh-ishrat qilishga tikkan idora boshlig'i Xolidiy ... (I kitob, 13-b.); - Hofiz, chaynalmasdan erkakcha gaplashaylik (I kitob, 36-b.); Yo`q, yo`q, siz uni ersirab qolibdi, deb o`ylamang (I kitob, 222-b.); Birgina jilmayishi bilan jonini sug`urib olishi mumkin bo`lgan, ammo yangi boshqonning ko`nglini ovlay olmasdan xunobi chiqib yurgan kotiba uning qovoq uyganini ko`rib chimirildi. (I kitob, 227-b.); Xuddi achigan ovqat yeb qo`yganday ko`ngli aynib, qorin og`rig`i boshlansa, to`lg`oq tutgan xotin kabi tipirchilab qoladi (I kitob, 227-b.); - Endi o`g`lim, biz otang rahmatli bilan vaqtida oshnachilik qilganmiz (I kitob, 242-b.); Ikkovi bir olamga tatiydigan bo`lib kamolga yetishyatuvdi (V kitob, 238-b.); Qarshi tomon javob bermay yana ma'sumalik libosiga o`raldi (I kitob, 246-b.).

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, “Shaytanat”da leksik birliklar bilan bir qatorda morfemik va morfologik vositalarning ham gender jihatdan farqlanishini ko`plab misollar yordamida ko`rishimiz mumkin.

3.3. Asardagi sintaktik vositalarning gender tadqiqi

Badiiy nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda sintaktik usuldan keng foydalaniladi. Bunda, albatta, sintaktik vositalarning muayyan genderlik belgilarining namoyon etishini kuzatamiz. Ekspressivlik shakllarini teran tadqiq qilgan tilshunos A. Abdullayev «sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog'lovchilarning maxsus qo'llanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so'roq» kabi uslubiy vositalar «fikrning o'ta ta'sirchan ifodalanishi»ga xizmat qilishini ta'kidlaydi. «Badiiy tekstning lingvistik tahlili» kitobi mualliflari sintaktik vositalarning quyidagi asosiy ko'rinishlari mavjudligini bayon qilishadi: «anafora, epifora, takror, antiteza, gradatsiya, ellipsis, alliteratsiya, ritorik so'roq kabilar. Bu uslubiy vositalar mavzuga aloqador bo'lgan deyarli barcha adabiyotlarda uchraydi. Biz quyida shulardan ba'zilarida uchraydigan genderlik xossalariga to'xtalish bilan cheklanamiz.

Badiiy matnda sintaktik jihatdan bir xil shakllangan gaplar ko'p qo'llaniladi. Tilshunoslikda bunday qurilmalar parallelizm atamasi ostida o'rganiladi. Parallelizm (yun. *parallellos* - yonma-yon boruvchi) yonma-yon gaplar, sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega bo'lishi. Parallel birliklarning asosiy vazifasi fikrga izoh berish va unga tinglovchini to'la ishonтира olishdan iborat. Bir xil shakllangan gaplar badiiy nutq ta'sirchanligini boyitish bilan birga ma'noni kuchaytirishga va fikrning batafsil - atroflicha ifodalanishiga, tasvir obyekti bilan bog'liq ma'lumotlar fondining kengayib borishiga xizmat qiladi. Masalan, asar qahramonlaridan biri bolalik xotiralari haqida eslar ekan, shunday deydi: *“Bolalik orzulari o'ttiz kunlik oy nuri kabi unga xiyonat qildi – zulmat qa'riga singib ketdi. Ammo.. quyoshga bo'lgan muhabbati so'nmadi. Bulutli tongga bo'lgan nafrati so'nmadi... Zotan... Uning butun umri bulutli tong kabi edi. Shubhasizki... Umri adog'ida aynan shunday bulutli kunda bo'lajagini u bilmas edi... Quyoshli tongni suygan bola umri adog'ida quyoshni bir marta ko'rmoq ilinjida ko'z yumadi... Bolaligida tong quyoshi uni aldardi. Alhol, uning quyoshi xiyonat qildi. So'nggi nafasida bir qarab olishni istamadi. Quyosh-ku... balki*

istagandir. Biroq, zaharli bulutga chimralgan umri evaziga bu baxtdan mahrum etilgandir... ”(IV kitob, 100-b.).

Soʻzlovchining oʻta xursandlik yoki oʻta xafalik holatlarini, yoki qahramonning his-hayajonini, voqea-hodisaga emotsional munosabatini ifodalovchi gaplar emotsional gaplar hisoblanadi. Emotsional gaplar tarkibida maxsus ijobiy va salbiy boʻyoqdor soʻzlar mavjud boʻladi. Bu soʻzlar orqali qahramon ruhiyatida kechayotgan sevinish, qoʻrquv, gʻazab kabi ruhiy jarayonlarni hamda yozuvchining tasvir obyektiga nisbatan subyektiv munosabatini bilib olish mumkin. Emotsional gaplar tarkibida ijobiy yoki salbiy boʻyoqdor soʻz va iboralar bilan bir qatorda his-tuygʻu ifodalovchi undovlar, munosabat ifodalovchi undalmalar qatnashadi va ular nutqning ekspressivligini taʼminlashga xizmat qiladi. Masalan, *Nima uchun hamma narsani boylik bilan oʻlchaymiz? Boylikdan boshqa oʻlchov yoʻqmi bu dunyoda? Bir sidra kiyim-kechak, kunlik yeyish uchun bir burda non bilan odamning baxtli boʻlishi mumkin emasmi? Boʻyni tilla zanjir koʻrmagan ayollar baxtsizmi? Qoʻsha-qoʻsha tilla bilaguzuk taqib yurganlarning hammasi baxtlimi?* (IV kitob, 346-b.); *Hech qanday huquqi boʻlmagan zaif yetimning qoʻlidan nima kelardi? Koʻpchilik yigʻlab-yigʻlab ovunadi. Bu bolani kim ovutadi?* (V kitob, 515-b.).

Ritorik soʻroq gaplar ham badiiy matnning emotsional-ekspressivligini taʼminlovchi uslubiy vositalardan hisoblanadi. Tasdiq va inkor mazmuniga ega boʻlgan, tinglovchidan javob talab qilmaydigan gaplar ritorik soʻroq gap deyiladi. Ular nutqqa koʻtarinki ruh bagʻishlaydi va tasdiqning kuchli emotsiya bilan taʼkidlanishi uchun xizmat qiladi. Bunday gap shakllari qahramonning hayratlanishini, quvonchini, ajablanishini, shubha va gumonsirashini, gʻazab va nafratini ifodalashda juda qoʻl keladi. Misol uchun, *Ne ajabki, mayor Soliyevga ham bu bomba ayni damda yurakka oʻxshab koʻrinib ketdi. Bomba ixtirochilarining qaltis yoki shum gʻalizimikin bu? ... Balki koʻzga koʻrinmas Azroilning koʻzlari ham shunga qadalgandir? Balki Azroilga bitta jon kerakdir? Balki kimdir tirik qolar?* (IV kitob, 37-b.); - *Adam tirik boʻlganlarida sizni kechirmasmidilar?* (III kitob, 108-b.); *“Gaping toʻgʻri, oshnam, oʻlikda nima*

gunoh? Yotgan yerida yotaversin.” (IV kitob, 220-b.); - Onasidan soramagan rozilikni mendan soʻraydimi, oq sutni men emas, onasi bergan. Onasi rozi boʻlarmikin? (IV kitob, 222-b.); ...Anvar nimadan toʻysin? Xolidiyning hiylalariga chiday olmaganini oshkor etib bu dunyodan ketvorsinmi? Dunyoni Xolidiylarga tashlab qochsinmi? Asqar Qosim ketdi. Nima oʻzgardi? Kim insofga kirdi? Kimning koʻzi ochildi? Uning isyonini kim anglab yetadi? (I kitob, 298-299-b.).

Gradatsiya (lot. gradatio – zinapoya, bosqichma-bosqich kuchaytirish) nutq parchalaridan biri ikkinchisining maʼnosini kuchaytirib borishdan iborat uslubiy jarayon. Badiiy adabiyotda holatlarni, tuygʻu va kechinmalarni qiyoslashda, his-hayajonlar junbushini toʻliq ifodalashda gradatsiya usulidan foydalaniladi. Adabiyotlarda gradatsiya xususiyatlariga koʻra turlicha tasnif qilinadi: mohiyatiga koʻra: koʻtariluvchi gradatsiya va pasayuvshi gradatsiya; ifoda usuliga koʻra: mantiqiy, emotsional va miqdoriy gradatsiya; ifoda materialiga koʻra: leksik gradatsiya va sintaktik gradatsiya. Biz ishimizga aloqador misollar orasida quyidagi parchani keltiramiz: *Doʻstimning doʻsti kim ekan, deb oʻylandi. Doʻstga oʻxshab yurganlar koʻp. Hammasini ogohlantirib chiqamanmi? Yo eng yaqin, eng chin doʻstlarnimi? Yoʻldan qaytmasa halok boʻladi... Qanaqa yoʻldan? Birovi amal talashayotgandir, birovi mol-dunyo qaygʻusi bilan yashayotgandir, birovi boshqasining chiroyli xotinini yoʻldan urmoqqa kirishgandir... Qaysi biri halok boʻladi? Nur nima uchun meni ogohlantirdi? Doʻstimning doʻsti halok boʻlishini istamadi. Ammo meni shoshiryapti...* (I kitob, 298-b.). Mazkur parchada qahramon boʻlib oʻtgan suhbatni tahlil qilishda har bir fikrni alohida-alohida qayta eslaydi va bu jarayon gradatsiyani keltirib chiqaradi.

Antiteza (antithesis – qarama-qarshi qoʻyish, zidlash) deb mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qoʻyish, zidlash hodisasiga aytiladi. Voqea-hodisalar mohiyatidagi ziddiyatni ochish uchun asosan, badiiy nutqda zid maʼnoli qoʻshimchalar, zidlovchi bogʻlovchilar, soʻz va iboralardan foydalaniladi. Badiiy matnni lisoniy jihatdan tahlil qilishda zidlantirishdan yozuvchining koʻzda tutgan maqsadi nima ekanligini aniqlash talab qilinadi. Yozuvchining mahorati zidlantirilayotgan voqeliklar uchun tanlangan

ifoda materialida yanada aniq ko‘rinadi. Masalan: *sen men bilan mushuk-sichqon o‘ynama. Mayda baliqlar hamma vaqt kattalariga yem bo‘lishadi. Senlar chivinsanlar, men – burgutman.* (I kitob, 39-b.). Bu misolda o‘zaro zid tushunchalar - *mushuk* va *sichqon*, *mayda* va *katta*, *chivin* va *burgut* kabilar zidlantirilyapti. Yana misol keltiramiz: *Berahm dillar saltanati fuqarolarida mehr-muruvvat, yaxshilik-yomonlik tushunchalari yo‘q demoq noto‘g‘ri.* (IV kitob, 142-b.); *Chuvrindining o‘g‘li “Chaqirtirgan ekansiz”, degach, bu gumon haqiqatga aylana bordi* (IV kitob, 73-b.); *Bitta qoringa siqqan aka-uka bir uyga sig‘masligini bilaman* (IV kitob, 305-b.); *O‘sha fashistning harbiy uchuvchilarini o‘ttizinchi yillarda sovetning o‘zi o‘qitib, tayyorlab berganiga nima deysiz?* (V kitob, 424-b.).

Oksyumoron grekcha so‘z bo‘lib, «*o‘tkir, lekin bema‘ni*» degan ma‘noni bildiradi. Ular ayrim adabiyotlarda «okkazional birikmalar», «noodatiy birikmalar» yoki «g‘ayriodatiy birikmalar» deb ham yuritiladi. Bunday birikmalar individualligi, yangiligi, ko‘nikilmaganligi va ohorliligi bilan tasvir ifodaliligini ta‘minlaydi. Ma‘lumki, istalgan ikki so‘zni biriktirish bilan oksyumoron yuzaga kelavermaydi. Bunday birikmalar yozuvchining badiiy tafakkur mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun g‘ayriodatiy birikmalarni mantiqsizlik bilan bog‘lash mumkin emas.

Farqlash deb ikki narsa–buyum, voqea – hodisa yoki holatlardagi differensial belgini aniqlashga aytiladi. Farqlash ham qiyos va chog‘ishtirishga asoslanadi. Ifoda usuliga ko‘ra antitezaga yaqin, lekin antitezada mantiqiy jihatdan qarama-qarshi bo‘lgan ikki qutb qiyoslanadi. Bunda biri ikkinchisini rad etadi yoki inkor qiladi Tasviriy vosita sifatidagi farqlashda belgilar qaysi xususiyatiga ko‘ra farq qilayotganligi aniqlanadi.

O‘xshatish deb «ikki narsa yoki voqea-hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, konkreteroq, bo‘rttiribroq ifodalash»ga aytiladi. O‘xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazliligini ta‘minlashda foydalanib kelinadi. O‘xshatish etaloni o‘xshatish konstruksiyaning poetik qimmatini, estetik salmog‘ini

belgilaydi. O'xshatish etaloni qanchalik original bo'lsa, o'xshatishli qurilma ham shu darajada ohorli bo'ladi. Badiiy matndagi o'xshatishli qurilmalar tekshirilganda ularni an'anaviy va xususiy-muallif o'xshatishlari sifatida tasniflash kerak bo'ladi. Yozuvchining o'z nigohi, kuzatuvchanligi, badiiy taxayyuli, analogiya quvvati asosida xalq tilidan foydalangan holda yaratgan o'xshatishlaridir. Bunday o'xshatishlarda originallik, obrazlilik va ekspressivlik hamisha yorqin ifodalangan bo'ladi. Har qanday o'xshatishdan maqsad tasavvur qilinishi qiyin bo'lgan tushunchalarni konkretlashtirish, mavhum tushunchalarni aniqlashtirish, narsa-hodisa, harakat-holatlarning eng nozik jihatlarini kitobxon ko'zi o'ngida go'zal bo'yoqlarda gavdalantirishdan iboratdir. Masalan, *Soliyev quvmoqchi bo'ldi: lekin yengil uchdi* (IV kitob, 95-b.); *Oldinlari yonida eri bo'lardi, yolg'izlik muzxonasining sovug'i unga kamroq sezilardi*. (I kitob, 411-b.); *Eng uzoq umr ham, eng og'ir hayot ham u kishiga atalgan ekan* (V kitob, 285-b.); *Otalariningni sog'indim. Yog'och otga minib bi-ir yo'lga chiqadigan bo'lib turibman*. (IV kitob, 215-b.); *Shalpangquloq, bormisan, bu dunyoda? Yuz so'mlik pulday yo'q bo'lib ketding-ku, a?* (III kitob, 215-b.). Misollardan ma'lum bo'ladiki, "Shaytanat"da o'xshatish vositasidan mahorat bilan foydalanilgan.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarning eng sara namunasi bo'lgan "Shaytanat" beshkitobligida o'zbek tilida faol qo'llanuvchi ko'pgina sintaktik vositalar erkaklik va ayollikni aks ettiruvchi maskulinlik va femininlik belgilariga boy ekanligini namoyon etadi. Asar matnida uchragan gender xoslangan so'zlar statistikasi ustida ishlash hamda mo'jaz lug'at tuzish galdagi vazifamiz deb bilamiz.

Bob bo'yicha xulosalar

Biz “Shaytanat” asarida qoʻllangan lugʻaviy birliklar, morfemik vositalar hamda morfologik va sintaktik birliklarning qoʻllanilishi, ularning oʻzida genderni aks ettirishidagi oʻziga xos xususiyatlarni oʻrganib, quyidagi xulosalarga keldik:

1. Biz “Shaytanat” qissasini badiiy matnning eng yuqori namunasi, deb taʼkidlashga asoslarimiz yetarli. Chunki mukammal badiiy matnni gender tahlil qilish jarayonida uning tilidagi leksik birliklarni leksikologiya qonun-qoidalariga monand ravishda maʼnodosh soʻzlar, shakldosh soʻzlar, zid maʼnoli soʻzlar, koʻp maʼnoli soʻzlar, tarixiy va arxaik soʻzlar, yangi yasalmalar, shevaga oid soʻzlar, chet va vulgar soʻzlar ajratib olinadi va asarda qanday maqsadga yoʻnaltirilganligi izohlanadi.

2. T.Malik qalamining oʻtkirlikiga sabab shundaki, u badiiy tasvir ehtiyojiga koʻra maʼnodosh boʻlmagan soʻzlarni ham shunday qoʻllaydiki, bu soʻzlar qissada xuddi maʼnodosh soʻzlar kabi idrok etiladi. Shuni alohida taʼkidlash joizki, matnda juda koʻplab salbiy maʼno ottenkasiga ega soʻzlar qoʻllanib, ularning sinonimik qatori kengaytirilishiga muvaffaq boʻlishga erishgan.

3. “Shaytanat” qissasida oʻzbek xalqining mustaqillik uchun kurashga qaratilgan milliy ozodlik harakati voqealari haqida ham bayon qiladi, bunda u tarixiy soʻzlardan oʻtmish voqeligini real tasvirlash maqsadida foydalanadi.

4. Yozuvchi oʻz qahramonlarini oʻzlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos soʻzlarni ishlatadi. T.Malik oʻzining besh kitobdan iborat qissasida asosan Toshkent shahri, qisman Fargʻona vodiysi kabi hududlarning shevalaridan unumli foydalanadi.

5. Tilshunoslikda vulgarizmlar deb ataluvchi qoʻpol soʻzlarda oʻta salbiy munosabat, kamsitish, mensimaslik, haqorat kabi bir qator ifoda semalari juda ochiq koʻrinib turadi. Bunday soʻzlar koʻproq nominativ maʼnolariga koʻra emas, ayni shu konnotativ maʼnolariga koʻra nutqda yashaydi. Maʼlumki, jamiyatning oʻziga xos qatlami boʻlmish qimorbozlar, oʻgʻrilar, fohishalar hamda shu kabi ijtimoiy tabaqaga mansub odamlar bilan munosabatga kirishuvchi qonun

himoyachilari va boshqa insonlar nutqida shunday soʻzlarning isteʼmolda boʻlishi kuzatiladi. Asar ayni shu mavzuga bagʻishlangani uchun ham bunday qoʻpol, haqoratli va salbiy maʼno boʻyoqdorligiga ega soʻzlar, ayniqsa, erkaklar nutqida koʻplab uchraydi.

6. Muayyan tilda muloqot qiluvchilar uchun oʻsha tildagi nomaʼlum, notanish, tushunarsiz yoki kam tushunarli boʻlgan soʻzlar agnonimlar degan nom bilan umumlashtiriladi. Agnonimlar lingvosentrik emas, balki antroposentrik hodisa hisoblanadi. Yaʼni, buni tildan foydalanuvchining lisoniy layoqati bilan bogʻliq hodisa deb qabul qilish mumkin. Bunday agnonimlarni asar matnida koʻplab uchratish mumkin. Asosan, oʻgʻirlik va qimorbozlik, giyohvandlik va noqonuniy olamga ilk bor duch kelgan erkak jinsiga mansub qahramonlar nutqida kuzatiladi.

7. “Shaytanat” qissasida qoʻllanilgan leksik birliklarning tahliliga toʻxtalar ekanmiz, ularning badiiy asar matnida lisoniy, kommunikativ, akkumulativ hamda estetik vazifalarni bajarishini alohida taʼkidlaymiz. Adib tomonidan qoʻllangan lugʻaviy birliklar qahramonlar dunyoqarashini aks ettirish, ularning nutqini individuallashtirish hamda illustrativ funktsiya bajarish kabilar bilan bir qatorda ular nutqidagi jinsga mansublik, yaʼni maskulinlik va femininlikni aks ettirishini kuzatishimiz mumkin.

8. Badiiy matnda morfologik birliklarning estetik vazifasi deganda «maxsus soʻz formalari vositasida, shuningdek maʼlum bir grammatik maʼno va funksiyaga ega boʻlgan soʻz formasini maxsus qoʻllash orqali ekspressivlik – emotsionallik ifodalanishi tushuniladi. Ekspressivlik ijobiy va salbiy maʼno qirrasiga ega boʻlgan soʻzlarda aniq koʻrinib turadi. Badiiy matn gender jihatdan tekshirilganda dastavval ana shunday maʼno qirralariga ega boʻlgan birliklarni ajratish va qaysi turkumga xosligi, kimning nutqida, nima maqsad bilan qoʻllanilganligi, kimga nisbatan, qanday vaziyatda ishlatilganligiga eʼtiborni qaratish lozim.

9. Koʻplik shakli qoʻshimchasining qahramonlar ruhiyatidagi turfa tovlanishlarni tugal aks ettirish imkoniyati boshqa qoʻshimchalarga qaraganda aniq koʻzga tashlanib turadi. Otning I shaxs koʻplik shakli Toshkent shevasida ayollar

nutqida –*miz* emas, balki –*miza* shaklida qoʻllanilganligini koʻramiz. Bunday holat erkaklar nutqida uchramaydi.

10. Asarda “ojiz”, “qaysar”, “buqaday”, “azamat” kabi lugʻaviy birliklarda maskulinlik xususiyati kuchli boʻlib, bu sifatlar, albatta, erkak kishiga nisbatan qoʻllaniladi. “Tugʻmas”, “tul”, “qoʻhlikkina”, “ofatijon” kabi lugʻaviy birliklarda esa femininlik xossalari mavjud boʻlib, ular matnda ayollarga nisbatan ishlatiladi.

11. T.Malik oʻz asarida erkaklarni bosh qahramon sifatida birinchi planga olib chiqqani sababli, asosan, erkaklar nutqida “men”, “biz”, “kamina”, “oʻzlari” kabi olmoshlarning keng qoʻllanilganligini va, albatta, ularda oʻziga xos maskulinlik xususiyatlari sezilishini koʻrishimiz mumkin.

12. Feʼlning mayl, shaxs-son, boʻlishli-boʻlishsizlik, nisbat, zamon hamda funksional shakllari asosida namoyon boʻluvchi oʻziga xosliklari matnda feʼllarning maskulinlik yoki femininlik xususiyatlarini aks ettirishda keng qoʻllaniladi.

13. Parallel birliklarning asosiy vazifasi fikrga izoh berish va unga tinglovchini toʻla ishonтира olishdan iborat ekan, bir xil shakllangan gaplar badiiy nutq taʼsirchanligini boyitish bilan birga gender maʼnoni kuchaytirishga va fikrning batafsil - atroflicha ifodalanishiga, tasvir obyekti bilan bogʻliq jinsga aloqador maʼlumotlarning kengayib borishiga xizmat qiladi.

14. Emotsional gaplar tarkibida ijobiy yoki salbiy boʻyoqdor soʻz va iboralar bilan bir qatorda his-tuygʻu ifodalovchi undovlar, munosabat ifodalovchi undalmalar qatnashadi va ular nutqning ekspressivligini taʼminlashga xizmat qiladi. Bunday gaplar, odatda, ayollar nutqida faol qoʻllaniladi, lekin asar matni tahlili erkaklar nutqida ham emotsional gaplarning keng oʻrin olganini koʻrsatdi.

15. Ritorik soʻroq gap shakllari qahramonning hayratlanishini, quvonchini, ajablanishini, shubha va gumonsirashini, gʻazab va nafratini ifodalashda juda qoʻl keladi. Erkaklar nutqida ritorik soʻroq gaplar koʻp qoʻllaniladi, ayollar nutqida esa bunday gaplar koʻp kuzatilmaydi.

16. Voqea-hodisalar mohiyatidagi ziddiyatni ochish uchun asosan, badiiy nutqda zid maʼnoli qoʻshimchalar, zidlovchi bogʻlovchilar, soʻz va iboralardan

foydalaniladi. Badiiy matnni gender jihatdan tahlil qilishda zidlantirish orqali maskulinlik va femininlik belgilaridan ham istifoda etiladi.

17. O'xshatishlar eng qadimiy tasviriyl vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta'minlashda foydalanib kelinadi. Bunda adib erkaklarga xos maskulinlik xossalariidan ham, ayollarga taalluqli o`rinlarda femininlik belgilaridan ham unumli foydalanadi.

UMUMIY XULOSA

Biz “Shaytanat” asarining gender xususiyatlari” deb nomlangan magistrlik dissertatsiyasi bo`yicha bayon etgan fikrlarimizni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga keldik:

1. Bugungi kunda jahon tilshunosligida matn va uning lisoniy tabiatini o`rganishga qaratilgan tadqiqotlar XX asr oxirlaridan amalga oshirila boshlandi. XX asrning 2-yarmida tilshunoslikda yangi yo`nalish – “Matn tilshunosligi” paydo bo`ldi.
2. Hozirgi paytga kelib, o`zbek tilshunosligida matn muammolarini tadqiq etishda salmoqli yutuqlarga erishildi hamda lingvistikada “Matn tilshunosligi” yo`nalishining mavqeyi yanada mustahkamlandi.
3. Badiiy matn ham shaklan, ham mazmunan mutlaqo o`ziga xos bo`lgan murakkab va serqatlam estetik butunlikdir.
4. Badiiy matnning til xususiyatlari tekshirilayotganida undagi har bir hodisaga makon va zamon birligi tushunchasini hisobga olib yondashish kerak.
5. Gender tushunchasi erkak va ayol o`rtasida nafaqat biologik farqni, balki jamiyatning jinsiy taqsimotida ijtimoiy va madaniy tavsiflarni to`liq qamrab oladi. Erkak va ayollarga tegishli ijtimoiy bog`liqlik, xulq-atvor va o`ziga xos stereotiplarda ifodalanadi.
6. Inson jinsda nafaqat fiziologik jihatdan farqlanadi, balki uning atrofida bilan muomalasi, nutqi, va, hatto, dunyoqarashida ham jinsdagi o`ziga xos, farqli yoki mushtarak jihatlar namoyon bo`ladi. Ularni ilmiy tadqiq qilish gender tilshunosligining yanada boyishi va rivojlanishiga xizmat qiladi.
7. XX asrning 90-yillariga kelib dunyo tilshunosligida gender tilshunosligi borasida izlanishlar olib borish qizg`in tus oldi.

8. Asrimizning boshlaridan O`zbekistonda gender tilshunosligining alohida ilmiy soha sifatida shakllanishi va rivojlanishi ahamiyatga molik.

9. O`zbek tilining boy imkoniyatlari insonga qarindoshlik rishtalari bilan bog`langan shaxslarni turli nomlar bilan atash uchun keng ko`lamli manba bo`lib xizmat qiladi. Bunday nomlarda maskulinlik va feminlik belgilari yaqqol namoyon bo`ladi.

10. Erkak kishiga nisbatan qo`llanuvchi nomlar orasida ota semasini ifodalovchi leksik birliklar, ayniqsa, alohida e`tirof etiladi.

11. O`zbek oilasida, odatda, ayol o`z eriga ismi orqali juda kam hollarda murojaat qiladi. Boisi, ayolning o`z eriga bo`lgan cheksiz hurmati, qadrlashi, shu bilan birga faqat sharq ayollarigagina xos bo`lgan nafaqat o`z turmush o`rtog`iga, balki oilaning boshqa a`zolariga ham andisha, xijolat yoki uyalish kabi tuyg`ularning ustunligidandir. Shu sababli xotin o`z eriga *odam, bu kishi, aka* (ismiga qo`shib), *begim, jonim, azizim* kabi murojaat shakllarini qo`llaydi. *Odam, bu kishi, aka* kabi leksik murojaatlarni, odatda, suhbatdoshlar davrasida ishlatib, *begim, jonim, azizim* kabi murojaat shakllarini o`zaro suhbatda, faqat er-xotin o`rtasidagina qo`llaydi.

12. Ayol semasini ifodalovchi leksik birliklar bilan birga qo`llanuvchi sifatlovchilarni kuzatar ekanmiz, bu birliklarda murojaat etilayotgan ayolga nisbatan so`zlovchining munosabati yaqqol namoyon bo`ladi. Masalan, *yostiqdosh, rafiqqa, xotin, jonon* kabi lug`aviy birliklarda ayolga bo`lgan munosabat jufti halolidan tortib, boshqacha mazmundagi murojaatni ham ko`rishimiz mumkin.

13. Ayolga otasi ismini qo`shib aytish yoki *xo`jayin* deb murojaat qilish uning oiladagi mavqeyi birmuncha yuqoriligini, shuningdek, hurmatga sazovorligini bildiradi.

14. Erkaklar o`zaro salomlashganda, ko`rishganda yoki xayrlashganda ularning nutq odobida bu ishni alohida lutf-u nazokat bilan

amalga oshirishga ishtiyoqning yo`qligi erkaklar salomlashishidagi o`ziga xoslikni belgilaydi.

15. Erkak kishi muayyan xursandchilik vaziyatida hayajon tufayli erkaklarga xos qat'iyatlilikni biroz bo`lsa-da yumshatishi hamda uning xatti-harakatlarida erkaklarga xos nazokat va samimiylik o`zgacha holatda namoyon bo`lishi mumkin.

16. O`zbek xalqi nutq odatida alohida olingan marosimlarda erkaklarning vazifalari, xatti-harakatlari hamda ayollarning vazifalari va har bir xatti-harakatlari izchillik bilan ishlab chiqilgan. Shunday ekan, har bir jins vakillari o`z xoslik doirasidan chiqib ketmaydi.

17. Neytral vaziyatlarda erkaklarga ham, ayollarga ham birdek xos bo`lgan, yoki boshqacha qilib aytganda, jinsga ajratilmaydigan alohida nutqiy birliklarning talaygina ekanligini qayd qilamiz.

18. Asarda insonni tashqi ko`rinishi orqali jinsda farqlovchi bir qator nutqiy birliklar, formulalar mavjud. Muhim ahamiyatga ega bo`lgan gender stereotiplar tizimiga qahramonning nutqi, ismi, laqabi yoki shaxsini ifodalovchi belgilar kiradi. Ammo bevosita ismini o`qimasdan yoki bilmasdan ham qahramonning ayol yoki erkak ekanligini anglatuvchi tashqi belgilar mavjudligi ma'lum. Bunday tashqi belgilarga yuz tuzilishi, ifodasi, qad-qomat, tana a'zolari tuzilishi, ovoz va kiyim-kechak kabi omillarni kiritish mumkin.

19. Erkak kishiga xoslikni bildiruvchi asosiy tashqi belgi-xususiyatlarga gavdaning ayolnikiga nisbatan yirik bo`lishi, yelkalarning keng bo`lishi, oyoq-qo`lning baquvvat va uzun bo`lishi, yuz tuzilishi ayolnikidan tubdan farq qilishi, asosan, soqol-mo`ylovning mavjudligidir. Bundan tashqari, faqat erkaklargagina xos bo`lgan xarakter xususiyati hamda muayyan xatti-harakatlar erkaklikning bosh va muhim ifodasi sifatida adib tomonidan qahramonlar tasvirida qo`llaniladi. Ana shu o`ziga xosliklar erkaklarga xos bo`lgan gender stereotiplarni tashkil qiladi.

20. Adib ayol obrazini tasvirlashda nozik va sarvqomat, jozibador va latofatli, qosh-ko`zlarida erkakni sehrlab qo`yishga qodir kuch yoki jodusi bor, g`uncha dudog` va qirmizi yanoq, mayin va shirali ovoz sohibasi degan go`zal ta`riflardan foydalanadi. Ana shu belgi va ta`riflar bevosita ayollarga xos bo`lgan gender sereotiplarni shakllantiradi.

21. Biz “Shaytanat” qissasini badiiy matnining eng yuqori namunasi, deb ta`kidlashga asoslarimiz yetarli. Chunki mukammal badiiy matnni gender tahlil qilish jarayonida uning tilidagi leksik birliklarni leksikologiya qonun-qoidalariga monand ravishda ma`nodosh so`zlar, shakldosh so`zlar, zid ma'noli so`zlar, ko'p ma'noli so`zlar, tarixiy va arxaik so`zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so`zlar, chet va vulgar so`zlar ajratib olinadi va asarda qanday maqsadga yo`naltirilganligi izohlanadi.

22. T.Malik qalamining o`tkiriligiga sabab shundaki, u badiiy tasvir ehtiyojiga ko`ra ma`nodosh bo`lmagan so`zlarni ham shunday qo`llaydiki, bu so`zlar qissada xuddi ma`nodosh so`zlar kabi idrok etiladi. Shuni alohida ta`kidlash joizki, matnda juda ko`plab salbiy ma`no ottenkasiga ega so`zlar qo`llanib, ularning sinonimik qatori kengaytirilishiga muvaffaq bo`lishga erishgan.

23. “Shaytanat” qissasida o`zbek xalqining mustaqillik uchun kurashga qaratilgan milliy ozodlik harakati voqealari haqida ham bayon qiladi, bunda u tarixiy so`zlardan o`tmish voqeligini real tasvirlash maqsadida foydalanadi.

24. Yozuvchi o`z qahramonlarini o`zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so`zlarni ishlatadi. T.Malik o`zining besh kitobdan iborat qissasida asosan Toshkent shahri, qisman Farg`ona vodiysi kabi hududlarning shevalaridan unumli foydalanadi.

25. Tilshunoslikda vulgarizmlar deb ataluvchi qo`pol so`zlarda o`ta salbiy munosabat, kamsitish, mensimaslik, haqorat kabi bir qator ifoda semalari juda ochiq ko`rinib turadi. Bunday so`zlar ko`proq nominativ ma`nolariga ko`ra emas, ayni shu konnotativ ma`nolariga ko`ra nutqda yashaydi. Ma`lumki, jamiyatning o`ziga xos qatlami bo`lmish qimorbozlar, o`g`rilar, fohishalar hamda shu kabi

ijtimoiy tabaqaga mansub odamlar bilan munosabatga kirishuvchi qonun himoyachilari va boshqa insonlar nutqida shunday soʻzlarning isteʼmolda boʻlishi kuzatiladi. Asar ayni shu mavzuga bagʻishlangani uchun ham bunday qoʻpol, haqoratli va salbiy maʼno boʻyoqdorligiga ega soʻzlar, ayniqsa, erkaklar nutqida koʻplab uchraydi.

26. Muayyan tilda muloqot qiluvchilar uchun oʻsha tildagi nomaʼlum, notanish, tushunarsiz yoki kam tushunarli boʻlgan soʻzlar agnonimlar degan nom bilan umumlashtiriladi. Agnonimlar lingvosentrik emas, balki antroposentrik hodisa hisoblanadi. Yaʼni, buni tildan foydalanuvchining lisoniy layoqati bilan bogʻliq hodisa deb qabul qilish mumkin. Bunday agnonimlarni asar matnida koʻplab uchratish mumkin. Asosan, oʻgʻirlik va qimorbozlik, giyohvandlik va noqonuniy olamga ilk bor duch kelgan erkak jinsiga mansub qahramonlar nutqida kuzatiladi.

27. “Shaytanat” qissasida qoʻllanilgan leksik birliklarning tahliliga toʻxtalar ekanmiz, ularning badiiy asar matnida lisoniy, kommunikativ, akkumulativ hamda estetik vazifalarni bajarishini alohida taʼkidlaymiz. Adib tomonidan qoʻllangan lugʻaviy birliklar qahramonlar dunyoqarashini aks ettirish, ularning nutqini individuallashtirish hamda illustrativ funktsiya bajarish kabilar bilan bir qatorda ular nutqidagi jinsga mansublik, yaʼni maskulinlik va femininlikni aks ettirishini kuzatishimiz mumkin.

28. Badiiy matnda morfologik birliklarning estetik vazifasi deganda «maxsus soʻz formalari vositasida, shuningdek maʼlum bir grammatik maʼno va funksiyaga ega boʻlgan soʻz formasini maxsus qoʻllash orqali ekspressivlik – emotsionallik ifodalanishi tushuniladi. Ekspressivlik ijobiy va salbiy maʼno qirrasiga ega boʻlgan soʻzlarda aniq koʻrinib turadi. Badiiy matn gender jihatdan tekshirilganda dastavval ana shunday maʼno qirralariga ega boʻlgan birliklarni ajratish va qaysi turkumga xosligi, kimning nutqida, nima maqsad bilan qoʻllanilganligi, kimga nisbatan, qanday vaziyatda ishlatilganligiga eʼtiborni qaratish lozim.

29. Koʻplik shakli qoʻshimchasining qahramonlar ruhiyatidagi turfa tovlanishlarni –*miz* emas, balki –*miza* shaklida qoʻllanilganligini koʻramiz. Bunday holat erkaklar nutqida uchramaydi.

30. Asarda “ojiz”, “qaysar”, “buqaday”, “azamat” kabi lugʻaviy birliklarda maskulinlik xususiyati kuchli boʻlib, bu sifatlar, albatta, erkak kishiga nisbatan qoʻllaniladi. “Tugʻmas”, “tul”, “qoʻhlikkina”, “ofatijon” kabi lugʻaviy birliklarda esa femininlik xossalari mavjud boʻlib, ular matnda ayollarga nisbatan ishlatiladi.

31. T.Malik oʻz asarida erkaklarni bosh qahramon sifatida birinchi planga olib chiqqani sababli, asosan, erkaklar nutqida “men”, “biz”, “kamina”, “oʻzlari” kabi olmoshlarning keng qoʻllanilganligini va, albatta, ularda oʻziga xos maskulinlik xususiyatlari sezilishini koʻrishimiz mumkin.

32. Feʼlning mayl, shaxs-son, boʻlishli-boʻlishsizlik, nisbat, zamon hamda funksional shakllari asosida namoyon boʻluvchi oʻziga xosliklari matnda feʼllarning maskulinlik yoki femininlik xususiyatlarini aks ettirishda keng qoʻllaniladi.

33. Parallel birliklarning asosiy vazifasi fikrga izoh berish va unga tinglovchini toʻla ishonтира olishdan iborat ekan, bir xil shakllangan gaplar badiiy nutq taʼsirchanligini boyitish bilan birga gender maʼnoni kuchaytirishga va fikrning batafsil - atroflicha ifodalanishiga, tasvir obyekti bilan bogʻliq jinsga aloqador maʼlumotlarning kengayib borishiga xizmat qiladi.

34. Emotsional gaplar tarkibida ijobiy yoki salbiy boʻyoqdor soʻz va iboralar bilan bir qatorda his-tuygʻu ifodalovchi undovlar, munosabat ifodalovchi undalmalar qatnashadi va ular nutqning ekspressivligini taʼminlashga xizmat qiladi. Bunday gaplar, odatda, ayollar nutqida faol qoʻllaniladi, lekin asar matni tahlili erkaklar nutqida ham emotsional gaplarning keng oʻrin olganini koʻrsatdi.

35. Ritorik soʻroq gap shakllari qahramonning hayratlanishini, quvonchini, ajablanishini, shubha va gumonsirashini, gʻazab va nafratini ifodalashda juda qoʻl keladi. Erkaklar nutqida ritorik soʻroq gaplar koʻp qoʻllaniladi, ayollar nutqida esa bunday gaplar koʻp kuzatilmaydi.

36. Voqea-hodisalar mohiyatidagi ziddiyatni ochish uchun asosan, badiiy nutqda zid ma'noli qo'shimchalar, zidlovchi bog'lovchilar, so'z va iboralardan foydalaniladi. Badiiy matnni gender jihatdan tahlil qilishda zidlantirish orqali maskulinlik va femininlik belgilaridan ham istifoda etiladi.

37. O'xshatishlar eng qadimiy tasviriyl vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta'minlashda foydalanib kelinadi. Bunda adib erkaklarga xos maskulinlik xossalariidan ham, ayollarga taalluqli o'rinlarda femininlik belgilaridan ham unumli foydalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent; 1997.

O'zbek tilidagi adabiyotlar:

2. Abdupattoyev M. O'zbek matnida supersintaktik butunliklar. Filol.fan.nom. ...diss.avto-ref. – T., 1998.

3. Akbarova Z. O'zbek tilida murojaat shakllari va ularning lisoniy tadqiqi. Filol.fan.nom...diss. Toshkent, 2007.

4. Asqarova M., Qosimova M., Jamolxonov H. O'zbek tili.– Toshkent: O'qituvchi, 1989.

5. Ahmedova N. O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi. Filol.fan.nom...diss. Toshkent, 2008.

6. Boymirzaeva S. Matn mazmunida temperollik semantikasi. Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2009.

7. Hakimov M. O`zbek ilmiy matnining sintagmatik talqini. Filol.fan.dokt...disser.avtoreferati – Toshkent, 2001.
8. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug`ati.–Toshkent, 2002.
9. Iskandarova Sh. O`zbek nutq odatining muloqot shakllari. Filol.fan.nom...disser. avtoreferati. - Toshkent, 1994.
10. Karimov S. O`zbek tilining badiiy uslubi. Samarqand, 1992.
11. Karimov S. O`zbek tili uslubshunosligining hozirgi bosqichdagi muammolari. Samarqand, 2006.
12. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – Toshkent, 1989.
13. Matn va uning lisoniy tahliliga oid tadqiqotlar // Xalqaro ilmiy – nazariy konferensiya materiallari. – Samarqand, 1999.
14. Matn va uning talqini // Xalqaro ilmiy – nazariy konferensiya materiallari. – Samarqand, 2000.
15. Mo`minov S. O`zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Filol.fan.dokt.....diss. avtoreferati. Toshkent.- 2000.
16. Saidxonov M. Noverbal vositalar va o`zbek tilida ularning ifodalanishi. Filol.fan.nom...disser. Toshkent, 2004.
17. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M.va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: FTM, 2009.
18. Shoabdurahmonov Sh. va b. Hozirgi o`zbek tili. 1-qism.– Toshkent: O`qituvchi, 1980.
19. Shomaqsudov A., Rasulov I. va boshq. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent, O'qituvchi, 1983.

20. Tojiyev Y., Mallaboyev A. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Toshkent, 2006.
21. Turniyozov N. Matn lingvistikasi. – Samarqand, 2003.
22. Turniyozov N., Yo'ldoshev B. Matn tilshunosligi. Samarqand, 2006.
23. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, 2007.
24. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. Toshkent, Fan, 2008.
25. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
26. O'rinboev B., Qong'urov R., Lapasov J. Badiiy tekstning tahlili. – Toshkent, O'qituvchi , 1991.
27. Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili. Buxoro, 2004.
28. Qurbonova M. Hozirgi zamon o'zbek tili: sodda gap sintaksisi uchun materiallar. –Toshkent, 2002.
29. Qurbonova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. O'zbek tilining struktural sintaksisi. – Toshkent, 2004.
30. Qo'chqortoyev I. Badiiy nutq stilistikasi, Toshkent, 1975.
31. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari, Toshkent, 1977.

Rus tilidagi adabiyotlar:

32. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Москва, «Советская энциклопедия», 1969.
33. Введение в гендерные исследования. Учебное пособие. МГУ, 2000.
34. Гальперин И. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981.
35. Гендер как интрига познания: Сб.статей. М., 2000.
36. Гендер: язык, культура, коммуникация // материалы третьей международной конференции. Москва, 2003.
37. Дейк Т. Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Прогресс, 1989.
38. Залевская А. Некоторые проблемы теории понимания текста // Вопросы языкознания, М., 2002, №3.
39. Зарубина Н. Текст: лингвистический, методические аспекты. – М.: Русский язык, 1981.
40. Здравомыслова Е., Темкина А. Социальное конструирование гендера: феминистская теория // Введение в гендерные исследования. Часть 1: Учебное пособие / Под ред. И. Жеребкиной. Харьков - СПб, 2001.
41. Зильберман Л.И. Структурно – семантический анализ текста. – М., 1982.
42. Калшанский Г.В. От предложения к тексту // Сущность, развитие и функции языка. – М.: Наука, 1987.

43. Каменская О.Л. Текст и коммуникация. Москва. Высшая школа, 1990.
44. Кирилина Л.В. Категория «гендер» в языкознании // Женщина в российском обществе. 1997.
45. Кирилина Л.В. Развитие гендерных исследований в лингвистике // филологические науки. 1998.
46. Клецина И.С. Гендерная социализация. СПб, 1997.
47. Купина И.А. Лингвистический анализ художественного текста. – М., 1980.
48. Леонтьев А.А. Высказывания как предмет лингвистики, психолингвистики и теории коммуникации // Синтаксис текста. – М.: Наука, 1979.
49. Лингвистическая интерпретация специального текста и активизация обучения иноязычному общению, материалы международной теоретической конференции. – Самарканд, 1998.
50. Москальская О.И. Грамматика текста. Москва. Высшая школа, 1981.
51. Николаева Т. Лингвистика текста // Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990.
52. Одинцов В.В. Стилистика текста. – М.: 1980.
53. Потапов В.В. Многоуровневая стратегия в лингвистической гендерологии // Вопросы языкознания. Москва, 2002.
54. Попова Л.В. Гендерные аспекты самореализации личности. М., 1996.

55. Репина Л.П. Гендерная история: проблемы и методы исследования // Новая и Новейшая история. 1997. №6.

56. Скотт Джоан. Гендер: полезная категория исторического анализа // Введение в гендерные исследования. Часть II. Хрестоматия / Под ред. С. Жеребкина. Харьков: ХЦГИ; СПб.: Алетейя, 2001.

Jurnal va ilmiy to`plamlardagi maqolalar ro`yxati:

57. Bekmuhamedova N. Tanishuv e`lonlarida uchraydigan xulq stereotiplarining gender aspekti xususida // Tilshunoslikning dolzarb masalalari (ilmiy maqolalar to`plami, VI kitob). Toshkent, 2013.

58. Isayeva M. Badiiy dialogik nutqda qo`llanuvchi ba`zi vulgarizmlarning gender xususiyatlari haqida // Tilshunoslikning dolzarb masalalari (ilmiy maqolalar to`plami, VI kitob). Toshkent, 2013.

59. Muxamedova D. Mikromatn haqida ayrim mulohazalar // Til va adabiyot ta`limi, 1998, 1-son, 45-49-b.

60. Musayeva F. O`zbek tilida biologic jinsni ifodalashning leksik-semantik usuli // Tilshunoslikning dolzarb masalalari (ilmiy maqolalar to`plami, V kitob). Toshkent, 2011.

61. Safarov Sh., Boymirzayeva S. Gender tilshunosligi va matn tadqiqi // xorijiy filologiya. 2006.

62. Sultonova Sh. Badiiy asarlarda ayollar nutqining ta`sirchanligini ifodalash vositalari // “Jahon adabiyoti” fanini o`qitishning dolzarb muammolari respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to`plami. Toshkent, 2011.

63. Yo`ldoshev B. Badiiy matnlardan frazemalarda uslubiy maqsadda foydalanish // Matn va uning lisoniy tahliliga oid tadqiqotlar, xalqaro ilmiy anjuman materiallari. –Samarqand, 1999, 8 –11- betlar.

64. Yo`ldoshev I. O`zbek tilshunosligida matn va uni o`rganish muammolari (erishilgan yutuqlar va vazifalar) // Samarqand, 1998, 59-61 – betlar.

65. Yo`ldoshev B., Rajabova K. Shaxs tavsifi uchun qo`llanuvchi zoonimlarning gender xususiyatlariga doir // Tilshunoslikning dolzarb masalalari (ilmiy maqolalar to`plami, VI kitob). Toshkent, 2013.

66. Qurbonova M., Rajabova N. Diskursning gender xususiyatlari // O`zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Toshkent, 2011.

67. Qurbonova M., Boymirzayeva S. Tilshunoslikda gender tadqiqotlar // O`zbek tilshunosligi. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyoti ko`zgusida. Toshkent, 2011.

68. Qurbonova M. Grammatik jins va biologik jins tushunchalari talqini xususida // O`zMU yosh tadqiqotchilari ilmiy ishlari. Toshkent, 2004.

69. Таджиева З. Гендерная проблематика в прессе // O`zMU yosh tadqiqotchilari ilmiy ishlari. Toshkent, 2004.

70. Юлдашова Н. Гендерные аспекты при изучении зарубежной литературы // “Jahon adabiyoti” fanini o`qitishning dolzarb muammolari respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to`plami. Toshkent, 2011.

Internet resurslari va sahifalari ro`yxati:

71. <http://www.roman.by/r-54571.html>
72. <http://www.gender-cent.ryazan.ru/kirilina.htm>
73. <http://u-too.narod.ru/gender.htm>
74. <http://gender.at.ua/load/1-1-0-19>
75. http://www.gender.cawater-info.net/what_is/index.htm
76. <http://www.owl.ru/gender/010.htm>
77. http://www.terms_com.ua Словари_ Глоссарии_ Термины.htm
78. <http://www.transgender.ru/>
79. <http://www.yurov.com/gender.htm>
80. <http://www.gender-cent.ryazan.ru/bazhenova.htm>